

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**AMALIY SAN'AT FAKULTETI
«BADIY KULOL VA ME'MORIY YODGORLIKLAR BEZAGINI
TA'MIRLASH» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Amaliy san'at fakulteti dekani
_____ S.J. Saidova
“ ___ ” _____ 2018 yil

5151200 – Amaliy san'at ta'lim yo'nalishi,
“Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash” bo'limi
065-12-guruh talabasi

Razikbaeva Nodira G'anisher qizining

**“QADIMGI ZARGARLIK BUYUMLARINI TIKLASH
LOYIHASI (Ko'ktepa misolida)”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Badiiy kulolchilik va
ta'mirlash” kafedrası o'qituvchisi
_____ A.F. Ulmasov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Badiiy kulolchilik va ta'mirlash”
kafedrası mudiri
_____ K.B. Siddiqov

Toshkent – 2018

Mazkur malakaviy bitiruv ishi “Badiiy kulolchilik va me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlesh” kafedrasida bajarilgan. “Badiiy kulolchilik va me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlesh” kafedrasining 2018 yil “___” _____dagi №___ - sonli majlisida hamda Amaliy san’at fakultetining 2018 yil “___” _____dagi №___ - sonli fakultet Kengashida muhokama qilingan va himoyaga ruxsat etilgan.

Taqrizchi: _____

Malakaviy bitiruv ishi himoyasi 2018 yil “___” _____ soat ___da Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o’tkaziladi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshox ko’chasi 123.

MUNDARIJA

| | |
|---|--------|
| KIRISH | 4 |
| I-BOB. KO'KTEPA ARXEOLOGIK YODGORLIGI | |
| 1.1. Ko'ktepa yodgorligi tavsifi | 6 |
| 1.2. Malika qabri va undan topilgan zargarlik buyumlari | 9 |
| II-BOB. O'ZBEKISTONDA QADIMGI DAVR ZARGARLIK SAN'ATI TARIXI | |
| 2.1. Qadimgi davr zargarlik san'atining o'rganilish tarixi | 15 |
| 2.2. Qadimgi liboslar arxeologik topilmalarda | 24 |
| III-BOB. ZARGARLIK BUYUMLARINI LIBOSLARDA AKS ETISHI VA ULARNING REKONSTRUKSIYA LOYIHASI | |
| 3.1. Zargarlik buyumlarini liboslarda aks etishi | 27 |
| 3.2. Zargarlik buyumlarini konservatsiya va rekonstruksiyasi | 39 |
| XULOSA | 46 |
| ADABIYOTLAR RO'YHATI | 49 |
| ILOVALAR | 54 |

KIRISH

O'zbekiston hududida turli davrlarga oid ko'plab arxeologik yodgorliklar aniqlangan. Ulardan esa qazishmalar natijasida bir nech minglab osori-atiqalar topilgan. Mazkur buyumlar bizning ajdodlarimizning hayotidan so'plovchi manbalardir. Shunga kora biz ularni ko'z qorachiday asrashimiz, o'rganishimiz va kelgusi avlodlarga etkazishimiz zarur.

Vatanimizda qisqa tarixiy davr ichida davlat va jamiyat qurilishi borasidagi siyosiy jarayon bilan birgalikda ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda jadal o'sishni sezish mumkin. Bu esa mamlakatimiz taraqqiyoti ustuvor yo'nalishini belgilab beradi. Mustaqillik davrida har bir yoshning qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyon qila olishlari uchun to'liq imkoniyatlar yaratish tom ma'noda davlat siyosatiga aylandi¹.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, xozirga qadar amaliy san'at asarlari orasida qadimgi zargarlik buyumlarining liboslarda aks etishi amalda kam bajarilgan. Ko'ktepa yodgorligidan kashf qilingan sak malikasi va unga tegishli liboslar yaqin yillarda etarlicha o'rgannilmagan. Endilikda liboslarni o'rganish va ularni tiklash nihoyatda muhimdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Yaratib berilgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amaliy san'at asarlarini ta'mirlash yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar, adabiyotlar orasida O'rta Osiyo liboslarida aks etgan zafgarlik buyumlarini o'rganish haqida materiallar va amaliy ishlar deyarli yo'q hisobi. Malakaviy bitiruv ishim uchun asosiy material qilib olingan ob'ekt, So'g'd tarixiy-madaniy hududiga kirgan va hozirda Samarqand viloyati Bo'lung'ur tumanidagi Ko'ktepa yodgorligidan topilgan "Sak malikasi" obrazidir.

Bitiruv malavakiy ishining maqsad va vazifalari. Ko'ktepa yodgorligidan topilgan bu qabr 1990 yillar orasida aynan arxeologlar nazoratida qazib olingan. Bitiruv malakaviy ishimning ob'ekti qabr esa Isomiddinov va Rapin tomonidan ochilgan.

² Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent O'zbekiston 2008, 3 bet

Ayol libosining topilgan holatiga kelsak, iqlim o'zgarishlari va yerning fizik-kimyoviy ta'siri natijasida libosning mato qismi saqlanib qolmagan, chirib ketgan. Topilgan taqinchoqlarning o'rni, mato izlari hamda ustuxon silueti libosni qayta tiklash imkonini berdi. Bu mavzuni o'rganishning murakkab tomoni shundaki, topilgan tasvirlar (ayniqsa, ko'chma ob'ektlar) casual holatda, ishlab chiqarish sanasi va joyi noma'lum holda topilganligidir. Ular juda tez buzilib, talon taroj qilib kelingan.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi, tariximizni aynan amalda bajarilgan buyumlar bilangina emas, balki, liboslari asnosida ochib berish. Mamlakatimizning boy tarixini, qimmatini oltiniga barobar an'analarini kiyinish madaniyati timsolida ko'rsatib berishdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotda yoritilgan Qadimgi So'g'd liboslarining rekonstruksiya loyihasi ilk marotaba keng o'rganilib, amaliyotga tadbiiq etildi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning aynan ob'ekti sifatida biror tashkilotni ayta olmayman, biroq, buni tavsiya etgan insonlar bitiruv malakaviy ish rahbari Akmal Ulmasov. Tadqiqotning predmeti esa, aynan saqlanib qolmagan, lekin, chizmalarda qayta tiklangan "Sak malikasi" obrazidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, hozirgi paytgacha Qadimgi So'g'd liboslarining rekonstruksiya loyihasi amalda bajarilmagan. Bitiruv malakaviy ishida bu vazifani to'liq bajarishga harakat qilganman. Ushbu ma'lumotlar va amaliy ishlar kelgusida ta'mirlash va arxeologiya mutaxassisligi talaba yoshlari uchun leksiya va seminarlarda asos bo'lib xizmat qila oladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishining yozuv qismi 50 betdan, ya'ni: kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat bo'lib, amaliy qismi 6 ta (80/80) planshet va 1 ta qayta tiklangan libosdan iborat.

I-BOB. KO'KTEPA ARXEOLOGIK YODGORLIGI TAVSIFI

1.1. Ko'ktepa shahristoni

Ko'ktepa – Bulung'ur kanalining yonidan o'tgan trassa yaqinida, Zarafshonning o'ng qirg'og'idagi vodiyaning deyarli 8 m balandlikdagi qumli plato ustida joylashgan (1.1-rasm). Tarxda trapetsiyasimon bo'lib, tomonlari –500 m. Temir davri boshlarida Ko'ktepa yirik mudofaalangan shahar yadrosini tashkil etgan. Ilk temir asrida, ya'ni birinchi yashash davrida bu yer ("Ko'ktepa I")da faqat maxobatli inshootlar qurilgan. Avvalda bular markazida joylashgan keng va xovliligi ansambllar ko'rinishida bo'lgan ("Ko'ktepa II"). Ulardan biri diniy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, boshqasi chamasi, saroy bo'lgan. Keyinroq g'isht taxlamalaridan iborat ikkita platforma qurilgan va bu bugungacha yetib kelgan shahristonning reliefini tashkil qiladi ("Ko'ktepa III").

Plato markazidagi birinchi ansambl qisqargan piramida ko'rinishga ega va u yarim aylana burjlar bilan o'ralgan (1.2 d - rasm). Ikkinchisi – platoning janubiy-sharqiy burchagida joylashgan va u kichik o'lchamdagi zikkuratga o'xshagan balandligi – 10 m, tomonlari – 50 m dan bo'lgan qo'sh zinali platforma ko'rinishga ega (1.2e, 1.2-rasmlar). Tadqiqotchilar bu majmualarning mavjud bo'lgan davri aniqlanmagan, lekin ko'plab yirik qurilishlar ularning qurilish boshlangan davri Aleksand Makedonskiy bostirib kelmasdan ancha avvalgi davrlarga to'g'ri kelishi mumkinligini taxmin qilgan.

Ellin davri («Ko'ktepa IV») deb nomlangan faza vaqti, «Afrosiyob II A»ga to'g'ri keladi, ya'ni Aleksandr Makedonskiy yurishi va er. avv. III asrning birinchi yarmi o'rtasi)da plato to'rtta darvozali mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Bu bugungi kunda unga qal'a ko'rinishini bergan (1.2 f-rasm). Turar joylar bir necha uylardan tashkil topgan. Ular chamasi kazarma vazifasini o'tagan.

Platformaning eng baland qismida so'nggi me'moriy majmua ellin davriga xos kvadrat g'ishtlardan tekis va ko'ndalang qilib taxlangan. Bir muddat, shahardagi hayot batamom tugamasidan oldin bu yerda hunarmandlarning ustaxonalari faoliyat ko'rsatgan.

Shahar hayoti tugagandan so‘nggi yillarda shahriston hozirgi ko‘rinishda saqlangan. Bu yerdagi yagona yashash faoliyati er. avv. III-I asrlar bilan belgilangan ko‘chmanchilarning qabri («Ko‘ktepa V») bilan bog‘liq. Ayniqsa, sharqiy platoformaning quyi va yuqori qismlarida. Shunga qaramasdan sharqiy platforma tabiiy tepalik ko‘rinishga ega, aynan shu yerda qo‘rg‘on ko‘rinishidagi maxobatli qabr («Ko‘ktepa VI») joylashgan (1.2 n-rasm). G‘arbiy platforma bugunga kunda qisman buzilgan bo‘lsada bu yerda ikkinchi maxobatli qabr bo‘lgan. Lekin, qazishmalar chog‘ida uning izlari topilmagan.

O‘rta asrlardan boshlab («Ko‘ktepa IX») platodagi ansambl turar joylar bilan bo‘lingan. Bu turar joylar yarim yer to‘la, qabriston va ko‘p sonli ariqlar bilan sug‘orilgan mevali bog‘lar ko‘rinishida bo‘lgan.

Qadimgi nekropol va qo‘rg‘on

Platforma markazida axmoniyalar davriga oid maxobatli dafn majmuasi kavlab qazilgan (1.2-rasm). O‘sha paytdayoq o‘zining birinchi vazifasini yo‘qotib bo‘lgan edi («Ko‘ktepa III»). Ellinistik davrdan so‘ng tepalik cho‘qqisi kengaygan va axmoniyalar davriga oid platformadan chiqqan dumaloqsimon g‘ishtlar yotqizilgan. Aynan shu yerda o‘nlab qabrlari bor nekropol («Ko‘ktepa V») qurilgan. Hozirgi paytdagi yuza balandligidan 1 m pastdagi chuqurlikda bo‘lkasimon g‘ishtlardan taxlangan qabr yerda o‘yilgan g‘ovak ko‘rinishida va tomonlari shimol-janubga yo‘naltirilgan. Qabrlarning unchalik chuqur emasligini tepalik cho‘qqisini yaqindagina qishloq xo‘jaligi ishlari payti tekislaganligi bilan tushuntirish mumkin. Natijada yodgorlikning ustki yuzasi batamom buzilgan. Faqatgina bitta boshi shimolga qaratilgan bola suyaklari saqlangan chuqur qolgan. Qolganlarida suyaklar saqlanmagan va bu ularni ilk holatini tiklashni va qabrni aniq sanasini taklif qilishga imkon bermaydi.

Ayrim chuqurlar uzun tomoni bo‘ylab balandligi 25 sm dan 50 sm gacha bo‘lgan sufalar yoki juft simmetrik tokchalar bilan taminlangan. Ayniqsa yon tokchanning shakli boshqacha bo‘lib, ko‘chmanchilarning “qabr uchun tokcha”

xarakteridagi yonida tokchasi bor qabrini eslatadi. Bu kirish yo‘lagi tik quduq orqali amalga oshirilgan sag‘anani hosil qilgan.

O‘qi bo‘ylab shimoldan janubga yo‘naltirilgan maxobatli daxma dromosli va ko‘ndalang katakombali qabrlar turiga xosdir. Bu bugungi kungacha ma‘lum bo‘lgan qurilmalar ichida eng murakkabdir («Ko‘ktepa VI»). Uning o‘lchamlari 11x5,7 m (1.3-rasm). Quyi sath hozirgi yer yuzasidan taxminan 6,4 m chuqurlikda joylashgan. Kengligi 1,2 m bo‘lgan yo‘lak orqali tushib boradigan sag‘ana dromosning janub tomonida qazilgan. Mazkur tarxda trapetsiyasimon bo‘lgan dromos uzunligi 3,6 m, ichki maydonning janubdagi eng tor eni 2,4 m, shimoldagasi esa 3,2 m. Kirish yo‘lagi ortidan ikkala tomonidan ham marhumlarga bag‘ishlangan hadyalarni qo‘yuvchi ikkita yon tokchalar ko‘rinadi. Dromosni balandligi chamasi 1,5 m dan oshmagan, uni aniq o‘lchash imkoni bo‘lmagan, chunki uni ravoqli tomi qulab tushgan.

Daxmada kelib chiqishi aristokratga mansub ayol qabri bo‘lgan². Jasad sag‘ananing shimoliy devoriga paralel ravishda yonlama ko‘milgan. Boshi shimol tomonga qaratilgan, qo‘llari esa gavdasi bo‘ylab yotqizilgan, o‘ng qo‘li esa yelkasiga tashlangan holatda. Jasad va boshqa ko‘milgan buyumlar chamasi oddiy taxta (juda yomon saqlangan) to‘shamaga qo‘yilgan (1.4-rasm). Daxmaning poliga qamish bo‘yra yotqizilgan va uni ustida bir-biridan alohida ikkita (№7 va №8) buyumlar qo‘yilgan.

Daxmaga kirish janubdan to‘rt pog‘onali (har biri 4 m dan) zinapoyali dromos orqali amalga oshirilgan. Dromosning yon devorlari daxma polidan 4 m balandlikda ikki qavatli pog‘ona bilan pastga tushgan.

Daxmaga kirish xom g‘ishtlar bilan to‘sib qo‘yilgan. Dromos ham jasadni daxmaga qo‘ygan paytda berkitilgan. Qabrni o‘sha qadimgi davridayoq talashga harakat qilingan. Buni galereyadagi kovlangan joy va katta tik chuqur aytib turibdi. Bu talon-taroj qilingan paytda daxmaning ravoqli tomi qulab tushgan va jasad

² Samarqanddagi Ya.G‘ulomov nomidagi Arxeologiya instituti antropologi Z.R. Shodiyev tomonidan amalga oshirilgan jasadning tana suyaklari va tish holatlarini dastlabki tadqiqotlariga ko‘ra marhum yoshi 42 dan 45 gacha bo‘lgan deb aniqlangan. Qolaversa, Kolarodo universiteti va Berkli universiteti arxeologik ekspeditsiyasi a‘zosi, antropolog Mishel Glans tomonidan o‘tkazilgan ekspertizaga ko‘ra ayol 20 yoshlarda bo‘lgan.

tanasiga katta talofat ko'rsatgan. Lekin, suyaklar sochilib ketmagan. Bu esa tomni ko'milgandan so'ng qulab tushganiga ishora beradi.

1.2. Dafn marosimiga oid buyumlar

Dafn marosimiga oid buyumlarning asosiy qismi daxma ichidagi qazishmalarda aniqlangan. U to'rtta hududga ajratilgan: a) sharqiy yon tokcha; b) g'arbiy yon tokcha; taxta to'shama atrofidagi go'ring o'zi; g) daxmaning turli buyumlar qo'yilgan poli.

a) Sharqiy yon tokcha salqin ichimliklarga mo'ljallangan sopol idishlarni saqlashga xizmat qilgan. To'rtta shunday idish tik chuqurni o'g'irlash uchun kavlangan paytda qulab tushgan ravoqdan ezilgan. Ularni ichida flyaga, ellinistik kraterlarni eslatuvchi va vinoni aralashtirishga mo'ljallangan quloqli kosa bor. Ularning oldida ushlagichi yo'q ikkita ko'za ham bor. Tokchanning oldida uchta oyog'i bor temir isiriqdon yotgan. Uning kelib chiqishi va vazifasi aniqlanmagan. Florans Berteen-Bengsonning aniqlashicha isiriqdonning kosachasi 1000 S⁰ dan baland bo'lgan haroratda qizdirilgan. Buyum turli zanglashni boshidan kechirgan. Bu esa uni qadimda qabrni tunash uchun kavlangan paytda sodir bo'lgan deyish ehtimolini beradi. Lekin, aniq tahlil bo'lmagan bois buni qachon bo'lganligini aytish qiyin.

b) Qarama-qarshi, ya'ni g'arbiy tokchada uchli konussimon va ikki quloqli bronza qozon topilgan. Uning oldida marosim paytida pishirilgan mahsulotlarning qoldiqlari ham aniqlangan. Qozon tokchanning ichida va qisman polni ichida yotgan. Uning ichida so'nggi pishirilgan ovqatdan qolgan mol va buzoq suklarining qoldiqlari bo'lgan.

c) Qabr: taxta dafn to'shamasi ustida topilgan buyumlarni ikkita kategoriyaga ajratish mumkin. Birinchisi ko'milgan marhumga tegishli libos va bosh kiyim qoldiqlari? bo'lsa; ikkinchisi o'zida "sharoit" ob'ektlari (bosh tagiga qo'yilgan narsa va isiriqdon) bo'lgan bevosita dafn marosimiga oid hamda shaxsiy buyumlarni tashkil qiladi. Qabrda hech qanday zargarlik buyumlari topilmagan bo'lsada, libosning boy va hashamdorligi ko'milgan marhumning yuqori

mavqeidan darak beradi. Yenggi uzun ko‘ylak chetlari kichik o‘lchamdagi yumaloq qadamalar bilan bezatilgan. Ular kamida 345 ta bo‘lib, to‘liq tikib chiqilsa uzunligi 3,5 m ga yetadi. Bu esa libosni tiklashga imkon beradi (1.5-rasm). Ko‘ylak belbog‘ bilan to‘ldirilgan. Undan oltindan ishlangan va firuza toshlar bilan qadalgan uchta oxirgi tugallangan bezak saqlangan. Belbog‘ga tegishli qismda F. Berteen-Bengson junli matoga o‘xshash pishiq mato qoldiqlarini aniqlagan.

Marhumning boshi boshtiragich sifatida xizmat qilgan kumush piyolaga tiralgan. Boshning ikki yonida 60 ta shishadan yasalgan mayda bochkasimon, tekisroq va tilla suvi yuritilgan hamda ikkita alohida pishiq iplarga tizilgan munchoqlar yotgan. Undan tashqari, boshdan chap tomonda har biri ikki martadan qayrilgan uchta oltin plastina topilgan. Ularning shakli, ulardagi harir gazlama izlari va qizil bo‘yoq qoldiqlari mazkur plastinalarni qizil hoshiyali tillaqosh (diadema) ko‘rinishida yoki bosh kiyimga tikib chiqilganligiga guvohlik beradi (1.5-rasm, №16-18 rekonstruksiya).

F. Berteen-Bengsonga ko‘ra bosh atrofi ikkita xar-hil turdagi mato bilan o‘ralgan. Biri ingichka iplardan to‘qilgan bo‘lsa, ikkinchisi ancha qalinroq iplardan to‘qilgan. O‘sha yerning o‘zida mayda mis qotishmadan tayyorlangan boshchali va kumush o‘qli ikkita parchin (zaklyopka) topilgan. Ularning dastlabki joylashgan o‘rni tiklashga imkon bermaydi.

Marhumaning o‘ng qo‘li pastida to‘qilgan matodan bo‘lgan sumkacha qo‘yilgan. Uning ichidagi buyumlar tos suyagi va o‘ng tizza atrofida topilgan va ular “sarmat” turidagi ot protomasi bilan bezatilgan suyak taroq bo‘laklari hamda asosi qo‘rg‘onishdan tashkil topgan qotishmadan tayyorlangan xitoy turiga mansub og‘ir oynadan tashkil topgan (1.5-rasm, №14 va №15). Mazkur yasatilgan buyum o‘ralgan mato bosh suyagi oldida aniqlangan matolardan biriga o‘xshash. F. Berteen-Bengsonga ko‘ra bu mato ipak, kanop, paxta yoki zig‘ir matosidan to‘qilgan mato bo‘lgan. Marhuma qo‘li va oyna oldida ko‘plab mis bo‘lakchalari opilgan. Ularning ayrimlari qizil rangga bo‘yalgan bo‘lsa, boshqalari esa o‘rama tilla iplar bilan qoplangan. Biroq, buyumning dastlabki vazifasini, ya’ni nima (so‘mka yoki tasma?)ligini aniqlashni imkoni bo‘lmagan. Chap oyoq bo‘ylab temir

buyumlar – dumaloq sopli ikkita pichoq va bigiz yotqizilgan (1.5-rasm, №11 va №12). Shuningdek, ular oldida oq marmardan yasalgan qandaydir buyum topilgan. Chamasi, u kamarga buyumlarni mahkamlash uchun xizmat qilgan bo'lsa kerak. O'ng oyoq panjasi oldida ichida kuygan foldiqlari bo'lgan loydan yasalgan va qizilga bo'yalgan kvadrat isiriqdon aniqlangan.

g) Daxma poliga to'shalgan qamish bo'yra ustida ikkita buyum yotgan. Birinchisi marhumaning chap yelkasi tomonida bo'lib, yumaloq taglikli kumush qadahni namoyon qiladi. Uning aniq nimaga ishlatilganligi bizga noma'lum (ichish uchun idish yoki surtma uchun piyolacha?). Ikkinchi buyum ham marhumaning bosh tomonida bo'lgan va u loydan ishlangan isiriqdon bo'lib, qizil tusga kirguncha qizdirilgan. Bu ham qolgan loydan va temirdan ishlangan ikkita isiriqdon kabi dafn marosimida ishlatilgan.

Dafn buyumlarining tadqiqi

Qabr turi va dafn buyumlari nafaqat marhumga tegishli buyumlar balki uzoq hududlar bilan savdo va madaniy aloqalarni tiklashda ma'lumot manbasi bo'lib xizmat qiladi. "Aslzoda" daxmasidan aniqlangan yigirmataga yaqin dafn buyumlarini uchta guruxga ajratish mumkin:

Birinchisi – kelib chiqishi mahalliy turga mansub kundalik turmush buyumlari, masalan, tokchadagi idishlar kabi;

Ikkinchisi – boy qabrlardagi ayollar liboslariga xos kiyim va bezaklar;

Uchinchisi – shaxsiy va dafn marosimiga tegishli buyumlar: isiriqdonlar, pichoqlar, xitoy oynasi, shisha munchoqlar (chamasi Hindistondan kelgan).

II. Ko'ktepadagi qo'rg'onning maxobatligi va ko'milgan marhumaning hashamdor libosi ayolning ko'chmanchi aslzodalar ichidagi mavqeining yuqori bo'lganligidan guvoxlik beradi. Bezaklardan faqat ikkitasi topilgan. Birinchisi boshning ikkala tomonida yotgan ipga tizilgan shisha munchoqlar (ular sochni yoki rozni to'sib turuvchi harir pardani bezaganmi, bunisi qorong'u). Bosh yonida yotgan ikkinchi bezak qizil rangdagi tillaqosh yoki bosh kiyimdagi diademani bezagan tilla plastinalardir. Shakliga ko'ra botiq ko'rinishga ega bu kiyimning

qadama bezaklari o'ziga xos bo'lib, ko'chmanchilar olamida qablarning soni va turi ko'p bo'lganidek, bezaklarning ham son-sanog'i bo'lmasada, aynan ularni qaytaruvchi o'xshashliklari mavjud emas. Qadama bezaklar oddiy qoliplardan olingan va ikki yon tomonidan kiyimga tikish uchun teshiklar ochilgan. Ularga shakliga ko'ra eng yaqin o'xshash (yarim aylana shakldagi) bezaklar Tillatepa hamda Rossiyaning Rostov viloyatidagi Alitub qabrlaridan topilgan. Alitub qadama bezaklari o'rtasi qavariqligi bilan ajralib turadi.

Orol dengizining ikkala tomonidan o'tgan Sibir, Yettisuv va Qora dengiz o'rtasidagi an'anaviy cho'l yo'llari bo'yida ko'p sonli ayollar qabri bo'lgan aslzodalarning daxmalari aniqlangan. Ularning liboslari kashta va barcha shakllardagi tilla brakteatlar bilan bezatilgan. So'g'diyona va Baqtriya hududlarining ko'chmanchi aholisi uncha zich yashamagan va janubga uncha ta'sir o'tkazmagan. Biroq, aynan shu yerda Baqtr g'arbidagi Shibirg'on voxasida V.Sarianidi boshchiligidagi ekspeditsiya 1978-1979 yillarda mustasnosiz o'rtacha 20 000 dan ortiq tilla buyumlari bo'lgan boy qabrni aniqlaydi.

Kohin qabrining ijtimoiy mavqei.

Ko'ktepadagi dromosli qabrning bir qator xususiyatlarga ekanligi unda dafn qilingan marhumaning o'sha paytdagi jamiyatda alohida mavqega ega bo'lganligini ko'rsatdi. Buni jami cho'l dunyosida: Oltoy, Qozog'iston, Xitoy Turkistoni, Zarafshon vodiysi, Afg'onistondagi Tillatepa (sak shaxzodasi bilan birga dafn qilingan beshta ayol), Ural janubida va Qora dengiz bo'yida kuzatish mumkin.

Daxmaning murakkab tuzilishi va katta mehnat qilinganligi marhum tanasini mo'miyolagan deb taxmin qilishga undaydi. Tepalikdagi avvalgi qablarni aloxidalash maqsadida qilingan sinchiklab tozalash va qabrni ajratish marhumaning yuqori mavqega ekanligini ko'rsatdi. Uqoqdagi ayol qabri holatiga o'xshab u ham sig'inish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Narigi dunyoga kuzatayotgan dafn buromlarining xususiyatlari bu ayolning jamiyatdagi statusini ko'rsatib beradi. Har qanday burom – hoh u taroq, yo qozon,

yoki kuldon bo'lsin, – dafn marosimi, yoki diniy yo shomon (azaimxon yoki afsungar) vazifalari bilan bog'liq ramziy ma'noga ega.

Ko'ktepa majuasida o'z ifodasini topgan shunchalik ko'p boy buomlarga qaramasdan bezaklar hamda harbiy qurollarning deyarli mavjud emasligi marhumaning aslzoda, shu bilan bir vaqtda sig'inishga oid ekanligiga ishora beradi. Mazkur daxmaga qarama-qarshi Kobyakovadagi aslzoda qabrda ko'plab bezaklar topilgan. Ular ichida erkaklarga oid buomlar bo'lsada marhuma sarmat qabilalaridan biri alanlarning qabila yo'lboshchisi, hukmdor-amazonkaga tegishli bo'lgan.

Ko'ktepadagi dromosli daxma o'zining darajasida baqtriya-so'g'd tebrasidagi qimmatbaho buomlarga boy dafn etish an'anasini eslatadi. Ularga Afg'onistondagi Tillatepa yoki Seistondan G'arbiy Afg'onistonga boradigan yo'lda aniqlangan qabrlarni misol keltirish mumkin.

Zarafshondagi joylashuviga ko'ra Ko'ktepa daxmasi va yuqorida keltirilgan unga parallel sanayu o'tilganlar aniq bir hududdagi transosiyo yo'llarini kesib o'tgan, shimoldan janubga yo'nalgan migratsiya yo'laklaridan birida ko'chmanchi va baqtriya markazidagi o'troq aholi bilan aloqalar bo'lganligini ko'rsatdi. Bu yo'lak saklar tanlagan shimoliy-g'arbiy Hindistonga yo'nalgan yo'lga to'g'ri keladi; undan o'tib ular o'zlarining nomidan olgan Seiston yoki Sakston deb nomlangan o'rta hududni o'zlashtirgan.

Bu holat ham Zarafshon vodiysi o'troq aholisining madaniyatida, ham qarindoshlik izlari Sibirdagi Yenisey daryosidan tortib Shimoliy Qoradengizbo'yigacha cho'zilgan to'rt ming kilometrda seziladigan cho'l ko'chmanchilarining madaniyatida bo'lgani kabi dafn buyumlari tarkibida o'z ifodasini topgan. Bu negiz yoki asos (substrat)ga kelib chiqishi xitoy yoki hindistonga to'g'ri keladigan, shuningdek, savdo yo'llari orqali kelib qolgan g'arbga tegishli buyumlarni ham qo'shish mumkin.

Ko'chmanchilarning migratsiya tafsilotlari (K. Rapen)

Ko'ktepadagi topilma nafaqat Zarafshon voxasi tarixiga oid ma'lumotlar manbasi hisoblanadi, balki O'rta Osiyo tarixining o'sha qorong'u ko'chmanchilarning migratsiya davriga oid ayrim yangi gipotezalarni olg'a surishga imkon beradi. Ya'ni, Kushon imperiyasi paydo bo'lishi, ayniqsa, Soter Megas (Vima Takto? taxminan eramizning 80-105 yy.), keyinroq Kanishka davri (eramizning 127/128 yy.)da Samarqandni inqirozi bilan ajralgan payti.

“F” bosqichi. Ko'ktepadagi aslzoda daxmasi dromosli qabr va ko'ndalang katakomba turiga mansub, qaysiki marhum boshi bilan shimolga qaratilgan. Daxmaning qurilishi I asrning birichi o'n yilligi tegishli bo'lishi kerak. Bunga xitoy oynasi va shisha munchoqlar kabi ikkita kamyob, sanasi yaxshi belgilanadigan dafn buyumlari guvohlik berishi mumkin. Aynan shu davrda hudud chamasi, Kushon raqibi bo'lgan Kangyuy ko'chmanchilar konfederatsiyasi hukmronligiga o'tgan³.

³ Rapen K., Isomiddinov M., Hasanov M. Aristokraticeskaya grobnitsa kochevnikov. 99 bet.

II-606. LIBOSLARNING O'RGANILISH TARIXI VA ULARNING ARXEOLOGIK TOPILMALARDA AKS ETISHI

2.1. Qadimgi Baqtriya liboslarining o'rganilish tarixi.

Libos qadimda odamlar turmush tarzini, shaxsiy tabaqasini, kimligini anglatib turgan, bosgqacha qilib aytganda hozirgi zamon bilan taqqoslasak pasport vazifasini o'tagan. Qadimda Xitoy, So'g'd, Baqtriya liboslari kompozitsiyalari alohida belgilar bilan ajralib turgan.

Qadimgi Baqtriya podsholigi O'rta Osiyodagi qadimiy davlatchilik tuzilmalaridan biri Qadimgi Baqtriya davlatidir. Qadimiy manbalar shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi VIII asrda yirik Baqtriya podsholigi mavjud bo'lgan. Avestoda uning nomi Baxdi, Bihistun yodgorliklarida Baktrish, antik davr adabiyotlarida Baktriana sifatida qayd etilgan. Qadimgi Baqtriya bilan o'sha davr dunyosining boshqa davlatlari - Ossuriya, Yangi Vavilon, Midiya, Hindiston knyazligi o'rtasida aloqalar mavjud bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Ossuriya hukmronligi (gegemonligi) qaror topgan eramizdan avvalgi IX - VII asrlarda ossuriyaliklar Baqtriyaga hujum qilishgan. Bu harakat tarixda Ossuriya yurishi nomi bilan ma'lum. Bu yurishning asosiy sababi Baqtriya lazuriti ustidan nazorat o'rnatishga qaratilgan edi.

Eramizdan avvalgi VII - VI asrlarda Qadimgi Baqtriya podsholigi hududiga Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Marg'iyona va Sug'd yerlari kirgan. Baqtriyalik ustalar tomonidan tilla, tosh va bronzadan yasalgan turli mahsulotlar Xitoy, Fors davlati va Yevropada juda mashhur bo'lgan. Baqtriyaning yirik shaharlari Qiziltepa, Yer-Qo'rg'on, Uzunqir va Afrosiyob hududlarida joylashgan. O'sha davrda Baqtriyaga tashrif buyurgan sayyoh e'tiborini uylar, hunarmandlarning ustaxonalari va xo'jalik binolari uzra bo'y cho'zib turgan salobatli minoralar tortishi tabiiy edi. Kursiy Rufning yozishicha, "Baqtriyaning tabiati boy va turli-tuman. Ayrim joylarda daraxtlar va toklar o'ta sermahsul hosil

beradi, hosildor yerlar ko`plab buloqlardan suv ichadi. Yumshoq yerlarga bug`doy ekiladi, qolgani esa chorva uchun yaylovlardir".

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga qarganda, baqtriyaliklar belbog`li ko`ylak, cholvor va kuloh kiyishgan. Cholvorlarining pochasi uchi yuqoriga qayrilgan va etiklarining qo`njiga tiqib yurishgan.

Liboslar matolari. Buni aniqlash katta mashaqqat talab etadi. Bu borada Tillatepa nekropolidan topilgan qabrlar darak beradi. Bu yerdan ilk marotaba V.I.Sarianidi paxta, ipak, tilla rangli parcha kabi matolardan tikilgan libos qoldiqlarini topgan. Matolarning fragment va qoldiqlaridan bir muncha arzon matolar (zig`ir)da nusxalar olgan. Liboslar bezaklari asosan dengiz marvaridlaridan iborat bo`lgan. Xatto qabristondagi kichik oltin tosh ham lazurika va serdolika kabi toshlar bilan bezalgan. Bronza davrida Shimoliy Baqtriyada Xitoy ipak matosi, Hindiston paxta matolari mashhur bo`lgan. Qizil rangli ipak ilk marotaba Xolchayon yodgorligidan topilgan. Baqtriyaning o`zi ipak ishlab chiqara boshlagan davrlar esa eramizdan avvalgi V asr yoki eramizning II-III asrlariga to`g`ri keladi deb yozilgan manbalarda.

S.A.Yatsenko fikricha, qadimgi Yuechjey liboslari xususiyatlariga urg`u berish, Afg`oniston shimolidagi Tillatepa yodgorligidan topilgan materiallar hamda miloddan avvalgi davrning ikkinchi choragida, kechroq topilgan tangalar va boshqa topilmalarga borib taqaladi.

Qabrda dafn etilganlarning liboslaridagi zargarlik buymlari juda yaxshi saqlangan.

Qadimgi Baqtriyaning janubidagi yuqori davlat arbobining qabri 1978-1979 yillarda, Afg`onistondagi fuqarolar urushi boshlanishidan oldin olib borilgan sobiq sovet-afg`on ekspeditsiyasi izlanishlari davomida topilgan.

Biz yuqorida keltirib o`tgan qabrlardan esa libosga tegishli 20 000 dan ortiq tilla taqinchoqlar va janoza qoplamalar topilgan. Afsuski bu topilmalarni ko`p

qismi o'rganilmay qolib ketgan. Rekonstruksiya tadqiqotining ilk natijalari olim V.I.Sarianidi boshchiligida 1980-1982 yillarda tayyor holga keltirilgan⁴.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qadimgi kiyilgan liboslar, ularning elementlari, aksesuarlari haqida quyidagilar aniqlangan⁵:

Yelka yopinchig'i. Erkaklarning oldi ochiq libosi

Bunday libos yopinchiq sifatida ko'ylak ustidan kiyilgan. Zodagonlarning bayram kiyimlari uzunligi to'piqqa yoki bir oz yuqoriroqqa tushadigan chakmon bo'lgan. Ba'zida ularning yoqasi qaytarma bo'lgan va alohida bichilgan etak qat-qat taxli qilib tikilgan. Chakmonlar ko'krakda bir juft halqa yoki tomchi shaklidagi ilgak bilan tutib turilgan. Ba'zida ularning yonlari belbog' bilan bog'langan. "Garvard Buddasi" haykali supasida o'ng tomonda turgan donator (ehson qiluvchi)ning egnidagi xuddi shunday etaklari o'rab olingan va belbog' bog'langan chakmonning yonlarida ensiz jiyak va yon choki bo'ylab enli tasma bor; etagi bir qancha to'lqinsimon burmalarni hosil qiluvchi to'rtta saralangan keng vertikal bo'laklarga bo'lingan. Tilla qadama bezaklar (ayrim hollarda, ehtimol bu mo'yna tasmasidur) chakmon va etakning yon bag'irlarining chekalarini bezab turadi. Yenglar turli uzunlikka va eniga ega bo'lgan. Ba'zan Vima Taktning haykallaridan birida bo'lganidek, butun yuza bir xildagi tilla taqinchoqlar bilan bezatilgan. Xuvishkaning chakmonlari ham yengining yuqori qismida dekori tasmalarining boyligi bilan ajralib turadi.

Boshqa hollarda kalta chakmon (kurtak)lar kiyilgan. Rasmana chakmondan buning farqi, ularda uchta aytib o'tilgan zonalargina emas, balki yenglarining chekkalari ham bezatilgan bo'ladi (ehtimol, yengga tikib qo'yilgan manjetlar ham bezatilgandur). Chakmonlar chap tomonga o'ralib, belbog' bilan bog'langan. Belbog'lar, ehtimol, qalin matodan yoki teridan qilingan bo'lsa kerak. Taksildagi Dxarmarajikda qo'yilgan Budda (eramizning IV asri) poyida bir nechta ibodat qiluvchilarning egnida etagining pasti tashqariga qarab qiyshiq kesilgan

⁴Яценко С.А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы). М., 2006

⁵Яценко С.А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы) глава 2, 2.3. Юэджи/кушаны История изучения костюма. М., 2006

chakmonlarni ko'raish mumkin. Xuddi shunday holatni bir paytlardagi ahmoniyalar zamonasida G'arbiy Turkistonning ko'pgina xalqlari so'g'diyalar, xorazmiylar va saklar: xaumavarga, tigraxauda va "dengizorti" xalqlar; ularning birinchilarida O'rta asrlarning boshlarida ayollar liboslari saqlanib qolgan; kushonlarda etaklari bu xilda qiyshiq kesilish ayollar chakmonlarida ham kuzatiladi. Liboslarning maxsus turi Xuvishkiylarning tangalarida uchraydi, matodan tikilgan oldi ochiq ko'ylaklar oldi tik qatorlarda juft bog'ichlar bilan bog'langan.

Oldi ochiq ayollar libosi

Bunday liboslar ust kiyim sifatida ko'ylak yoki ich ko'ylak ustidan kiyilgan. Uzun, tovonga tushadigan chakmonlar ko'p tasvirlanmaydi. Ko'krakda eshilgan ip bilan bog'lanadigan birmuncha kaltaroq engsiz yopinchiqlar ham amalda bo'lgan. Kalta chakmonlar erkaklaridan ko'ra siporoq bezatilgan.

Oldi yopiq ayollar libosi

Ko'ylaklar tovongacha tushib turgan, oyoqlarni to'la yopib turgan; odatda ularning belbog'i bo'lmagan. Ba'zida ko'ylak ostidan ich ko'ylak kiyilgan. Gohida bu liboslarning yangi bo'lmas edi. Ko'ylak yoqasining shakli turlicha bo'lar edi. Ko'proq gorizontallik, ayrim hollardagina tikka yoki tik kesilgan. Fayoztepadagi devor rangtasvirida adorant (sig'inuvchi)larda yopinchiq ostida gorizontallik yoqali juda keng va erkin ko'ylaklar etagi oyoqlaridan ko'ra uzunroq tasvirlanganini ko'ramiz. Gohida terrakota (loy turi)dan yasalgan ayol sig'inuvchilarda ham, ma'budalarda ham chuqur uchburchak qiytiq'i bo'lgan ko'ylaklarni ko'rish mumkin; uning ichidan gorizontallik yoqali ichki ko'ylak yoki kichik uchburchak qiytiqli yoqasi bo'lgan ko'ylak kiyilgan. Aslzoda xonimlar ko'ylagi ba'zan bir turdagi katta gullar solingan matodan tikilgan. O'ziga xos etagiga bir oz yetmaydigan uzun qiytiqli oldi yopiq po'stin ham diqqatni tortadi; qolgan yerlari ko'rinishidan klassik kandisni eslatadi. Shunga o'xshash kiyim keyinroq Xorazmda paydo bo'ldi. Yaqin o'tmishda bunday ko'ylaklar (kurtai peshgusho) tekisliklarda yashaydigan tojik ayollarda rasm bo'lgan edi; maishiy qulayligidan

tashqari, ularning qismatining “ochiqligi”, tug’ishning yengil o’tishi ramzi bo’lgan magik ahamiyati ham bor edi.

Ko’pincha ust kiyim sifatida ko’plab naqshlari bor ko’ylak boshqa uzun ko’ylak ustidan yoki ishtonlar bilan komplekt qilib kiyilgan. Ularda yenglarining uzunligi turlicha: kalta yenglilardan tortib, burma qilib tikilgan, qo’ldan ham uzunlarigacha. Ko’pincha bunday ko’ylik ichidan tashqisidan bir oz uzunroq bo’lgan va boshqa rangdagi ich ko’ylak ko’rinib turgan. Yoqasi gornizontal, ayrim hollardagina qo’shimcha vertikal qiytiqli bo’lgan⁶. Bazida ko’ylakka yaxshilab bezatilgan ko’krak usti tasmalari chatilgan.

Ayollar bosh kiyimi

Ular erkaklarnikidan ko’ra kamroq xilma xillikka ega, shu bilan birga ular bilan umumiy elementlari yo’q (istisno tarzida bosh kiyimning bir turi konussimon va ikki tishli “pilotka” shaklida). Erkaklarda bo’lganidek ayollarda ham konussimon bosh kiyimlarning bir necha xili bo’lgan; agar bosh kiyim yumshoq matodan tikilgan bo’lsa, uning yuqori qismi oldiga yoki orqaga osilib tushib turishi mumkin. Konussimon bosh kiyimlarning quyi qismi qalin matodan silindr shaklida qilinganlari ham uchrab turadi. Quloqlarni va boshning orqa qismini yopib turishga mo’ljallangan yon chiqiqli quloqchinlardan ham foydalanishgan. Turmushga chiqqan ayollar bosh kiyimlarning ayrim turalarida ixcham va kalta soch yopinchiklari bilan ham ishlatilgan. Birmuncha uzunroq “shol” kam uchraydi. Tojiklardagi analoglariga qaraganda, bu mato parchasidan alohida bir tarzda uch burchakka yaqin qilib tikilgan ro’mol bo’lsa kerak. Baland va ko’rinishidan eshkaksimon qilib tekislangan bosh kiyim, har qatorida uchta qizil, oq, sariq element almashinib turadigan uch qavatli toj ham o’ziga xosdir. Sakkiz o’tkir yaproqli, lentadan qilingan mayda gulbezaklar qatori bilan bezatilgan, matodan tikilgan kichkinagina beret ham ma'lum.

⁶ Keyinchalik “etnografik” tojiklarda gorizontal ochiq libosni faqatgina turmushga chiqmagan qizlar kiygan, turmushga chiqqandan keyin libosiga qo’shimcha vertikal ochiladigan qizm qo’shilgan. Bu bolani emizish uchun qulay bo’lgan.

Oq matodan qilingan ayollar tillaqoshi ba'zida lentadan qilingan gulbezaklarda uchtdan qadama bezak bilan bezatilgan. Bu qadim an'ananing ildizlari Mesopotamiyaga, to'g'rirog'i Shumerga borib taqaladi. Baqtriyadagi ayol qabrlaridan birida yarimoy, W harfi va daraxt yaproqlari shaklidagi qadama taqinchoqlar bilan bezatilgan tillaqosh topilgan.

Bel kiyimlari. Ishtonlar (shalvorlar) va yubkalar

Erkaklar ishtoni, odatda, matodan tor, yoki (aslzodalar uchun) esa keng qilib tikilgan. Ayollar ko'ylakni tor ishton bilan kiyishgan, va ishton pochasini tuflining qo'njiga tiqib olishgan. Faqat bir holatda keng yupka tasviri aks ettirilgan.

Ayollar kamari matodan qilingan (ba'zida, uchlarida popukli jiyak) va «Gerakl tuguni» tarzida bog'lashgan. Shimoliy Baqtriyaning talonga uchragan qaysidir ayollar qabridan (G'arbning ko'rsatilmagan xususiy kolleksiyasida saqlanayotgan) tilla taqanchoqlarining katta jamlanmasi topilgan. Ular jumlasida ikki nozik to'rtburchak plastinani sharnirli birikmasidan iborat mato tasmali ensiz tilla bog'ich (?) ham bor. Plastinalarning markaziga o'simliklar shoxchalaridan "8" shaklida naqsh tushirilgan.

Ayollar oyoq kiyimi

Ular tuflilardan iborat bo'lgan. Tuflilar pasttakkina tumshug'i dumoloq shaklda, ba'zan qizil rangda bo'lgan. Erkaklar esa qo'nji kalta, teparog'idan kamar bilan siqilgan etik kiyishgan. Aslzodalarda esa kam uchraydigan qo'nji uzun va ikkita kamarcha bilan siqilgan oyoq kiyimlar uchragan.

Ayollar soch turmagi

Gazmoldan qilingan qopchiqqa butunligicha yashirib, bosh ortiga kengayib boradigan birgina kalta o'rim soch taomilda kam uchragan. Dalvarzintepadagi ma'buda haykali ajoyib bir namuna aks etgan: to'lqinsimon sochlar naq peshonasigacha olingan; orqada qolgan qismi tepa chekkasi peshonasini "tillaqosh" ko'rinishida o'rab o'tadigan, uzun o'rim qilib o'rigan. Boshqa bir

variantda ikki-to'rt kalta va ingichka o'rim turmakni to'ldiradi. Sochning sun'iy jingalak qilishning ikkita turi mavjud bo'lgan. Birinchi turi, chekka gajaklarni bir oz jingalak qilish, ikkinchisi, peshonadagi sochlarni butun halqa bo'ylab burab qo'yish; birinchi holatda ma'buda sochlarini uch qavatli qilib uchiga qarab kichrayib borgan sochlarni ko'ramiz; ba'zida bunday turmakni sochning eng tepasida tutam qilib qoldirilganini ko'ramiz. Bir marta soch bosh ustida shar holida yig'ilgani va ostidan lenta bilan bog'lab qo'yilganini kuzatdik. Kam hollarda turmakning konturlari parallelepiped shakliga yaqin bo'lgan. Sochning o'rtasidan farqi ochilgan oddiy turmak kam uchraydi, undan kamroq uchraydigani shunchaki tarab qo'yilgan uzun sochlar. Ba'zida sochlarni orqaga tarab, boshning ust qismiga tugun qilib qo'yishgan. Dalvarzintepada ayvonda aks ettirilgan saroy xonimlari tasvirida jingalak sochlari qisqagina qilib oldirilgan. Ehtimol, to'qilgan to'r ichiga olingandur. Bunday turmak eramizdan avvalgi V–III asrlarda Sharqiy Turkiston ko'chmanchilari orasida, keyinroq VII–VIII asrlarda So'g'dda rasm bo'lgan.

Pardoz-andoz anjomlari

Ayol yuzining tabiiy rangi kosmetika yordamida o'zgartirilgan (masalan, Tillatepada qo'rg'oshin karbonatdan olingan oq mineral bo'yoq, kermetdan tayyorlangan organik qizil bo'yoq, shuningdek, gematitdan va ko'mir turlaridan qilingan qora bo'yoq topilgan). Erkaklar ham ayollar ham yuzlariga qizil va ko'k rangdani yasama xollar qo'yib yurishgan. (Ayniqsa kushonliklarda ularning shakli va joylashuvi juda o'ziga xos bo'lgan.) Ularning joylashuvi va bezatish shakli erkak va ayollarniki ajralib turgan. Chunonchi, Xuvishkidagi bir tangada, u yonmacha tasvirda, o'rtasiga nuqta qo'yilgan ikki doira shaklida yonoqlarining ikki tomoniga gorizontol holda joylashtirilgan. Dilberjindagi mabudaning terrakota boshida yonoqlarida bittadan qizil xol, peshonasida markazida nuqtali, perimetrlari bo'yicha mayda nuqtali aylana, shaklidagi xol bor. Gandxaradagi Xariti mabudasining haykalida ham beshyaproqli bezak joylashtirilgan.

Liboslarni kiyib yurish qoidalari

Kift libosi odatda engli bo'lib, bag'ri o'ngdan chapga o'rab yoki tugma qadab yurilgan. Aftidan, past qismidagi tugmalar qatori ba'zan, bo'yinga yaqin ikki yirik tugma yoki ko'krak qismidagi yirik ilgak borligi kiyim barini oson ochilishini ta'minlagan. Kerak hollarda butunlay tugmalarni taqib olish mumkin bo'lgan (Matxurdagi Vima Takto haykali). Metropolitan muzeyidagi aks ettirilgan ikki yo'lovchi ketayotgan fil ko'rinishidagi Kushon bronza riton (shox idish)ida aslzoda chakmoni elkaga tashlangan holda tasvirlangan. Poyonqo'rg'ondagi terrokotada tasvirlangan taxtda o'tirgan ma'buda ko'ylagi ustidan tizzasiga tushadigan qandaydir libosni yopinib o'tirgani tasvirlangan. Erkakning keng yenglari cheti ba'zida shimarilgan holda kuzatiladi.

Ishtonlar odatda oyoq kiyim ichiga bostirib qo'yiladi. Hukmdorlar ishtonlarning pochasini oyoq kiyimga yirik disksimon plastina vositasida yig'ishtirib qo'yish usulini qo'llashgan.

Ko'p hollarda manjetlarni yaxshilab bezashga alohida e'tibor berishgan. Kushonlarning erkaklar libosida, porfyanlarnikidan farqli o'laroq dekorativ tasmalardan foydalanish juda kam uchraydi. Ba'zida ust kiyim bilan bosh kiyim bir xildagi to'rtburchak blyashkalarining parallel va bir nuqtadan chiqib taralgan chiziqlar bilan batamom qoplangan bo'ladi (Afg'onistonlik xonning latun qiyofasi). Ko'ylakning tik yoqasi, ayrim hollarda, oldidan ko'ra ko'proq orqasidan bezatilgani qiziq. Tillatepadagi 1-qabrdan chiqqan ayolning o'ng yelkasida uslubga solingan ko'rinishdagi tilla taqinchoq bor edi. Elamda bunday an'ana mil. avv. II ming yillikda paydo bo'lgan va aftidan sharqroqda yashaydigan etnoslarning liboslariga tan olingan elam ta'siri sharofati bilan O'rta Sharqda rim davrigacha saqlanib qolgan.

Tillatepadagi 1,3,6-qabrlar chinakam javohirlar o'lkasi edi (6-qabrda gavhar bilan mo'l-ko'l bezatilgan tillaqosh, marjon, sonlari va yenglari bezatilgan ko'ylaklar, oyna g'ilofi, boshmaldoqli qo'lqop, hatto tuflilarning ichlariga ham har biriga yarim dumaloq qadama taqinchoqlarga gavhar tikib qo'yilgan edi; 1-qabrda, aftidan yoqa va yelkadagi medalyonlar ham gavhar bilan bezatilgan).

1, 4-qabrlarda juft taqinchoqlarda nomutanosiblik (asimmetriya) holati kuzatildi (chap yengda o'ngdagiga nisbatan taqinchoqlar ko'proq); Taqinchoqlarning miqdor parametrlari ham g'alati. Tillatepada ayrim qabrlarda har turli taqinchoqlar soni beshga bo'lingani holda, boshqalari juft sonni tashkil etadi (1,3-qabrlar). Boshqa maqbaralarda juftliklar ko'proq uchraydi, besh karralıkları emas (2,4,6-qabrlar). Birinchi qabrda taqinchoqlarning bir necha turlari 11 ga bo'linadi. Aftidan taqinchoqlar muayyan sonlardan iborat partiyalar tarzida buyurtirilganga o'xshaydi.

Qadimgi xalqlarning madaniy tartib-qoidalari

Yuechjey libosi anchagina erkin va keng. Yelka va bel libosida ko'p hollarda, bir qadar yunon ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ko'psonli burmalar e'tiborni o'ziga tortadi (burmalar berilishi ko'p hollarda yunon san'atiga begona bo'lsa ham). Xipcha bel va keng kiftlar aristokrat erkakning qiyofasiga munosib ko'rilmas edi.

Kushonlik ayollar, ko'pincha yirik boshli, uzun qo'lli, kalta oyoqli etib tasvirlanar edi. Ularning bellari xiylagina xipcha, yelkalari esa yaxshigina keng bo'ladi. Yuzlari dumaloq yoki cho'ziq, iyaklari bo'liq, ko'pincha keng peshona, og'izlari o'rtacha, quloqlari uzunroq bo'lgan. Erkaklar yuzi bir qancha hollarda qizg'ish qilib tasvirlangan, sochlari esa "kulrang", qoshlari ingichka, doimo ta'kidlangan mo'ylovli.

Aslzoda ayollarning libosida, parfiyaliklarda bo'lganidek, qimmatbaho marvaridlarga va soch turmagiga e'tibor kuchliroq bo'lgan. Ko'kraklarining yuqori qismi tor yoqali kiyim bilan astoydil berkitilgan, odatda qo'llar ham yopiq bo'lgan. Erkaklarda asosiy e'tibor bosh kiyim va kamar detallariga qaratilgan. Kift liboslarining manjeti, barlarining chetini taqinchoq bilan bezashni unutmaganlar.

2.2. Qadimgi liboslar arxeologik topilmalarda.

Libos va uning aksessuarlarini eramizdan avvalgi II asr oxiridan eramizning IV asrigacha Kushonlar davlati tarkibidagi azaldan ko`chmanchi bo`lgan qabila – ulug` yuechjeylar madaniyatining eng yorqin, o`ziga xos va badiiy jihatdan muhim elementlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Keyingi paytlargacha bu mavzudagi keng material o`rganilmay qolib ketgan. Bu vaziyat Kushon imperiyasi madaniyatining shakllanishi masalalari, yanada kengroq qaralganda O`rta Sharq xalqlari yangi ellin va rim davri madaniyati bilan shug`ullanuvchi mutaxassislar uchun ma`lum darajada qiyinchiliklar tug`dirib kelar edi.

Odatda xatto eng obro`li tadqiqotchilar ham qisqacha qaydlar, oddiy dalillar va misollar bilangina qanoatlanib qo`ya qolishgan. Doimiy hollarda, tangashunoslar va san`atshunoslarning e`tiborini hukmdorlarning bosh kiyimlari va mayda, qimmatbaxo libos aksessuarlari (bo`yin taqinchoqlar, qimmatbaxo toshli taqinchoqlar, tilla to`g`nag`ich va boshqalar) jalb etib kelgan. Libosning mayda elementlari haqidagi alohida kuzatuvlar tezis shaklidagina berilgan (Мкртычев 1990).

Soha mutaxassislari yuechjey liboslariga 1983 yilning dekabr oyida, Tillatepadagi “oltin qabr” libos kompleksini rekonstruksiyasi bilan shug`ullanish chog`ida qiziqib qolishgan.

Shundan keyin bosilib chiqqan materiallarni ushbu xalq libosining to`la, chinakam va har tomonlama xarakteristikasini yaratish yo`lida bo`lgan urinishlarga qaratilgan o`ta murakkab maqsadga yaqinlashuv bosqichi sifatida qaralishi mumkin (Яценко 1989a; 1993e; 2000б, с. 353–358; Yatsenko 2001). Dastlabki e`lon qilingan bu materiallar hali qayta ishlanishi va to`ldirilishi zarur.

Ushbu mavzu bo'yicha manbalar juda ko'p va xilma-xil. Eng muhim axborotlar tosh (kam holatda loy) va haykaltaroshlikda yoritib berilgan (birinchi navbatda: Rosenfield 1967; Пугаченкова 1979; Stawiski 1979; Czuma 1985; Gupta 1985; Древности 1991; The Crossroads 1992).

Ular asosan Surx Kotal (Afg'oniston) va Panjob (Hindiston, asosan, Matxura va Sangol: Joshi 1966; Gupta 1985; Matxura 1989; Sharma 1994, 1995; Astxana 1999)dagi muqaddas sulolalar vakillari, bundan tashqari Shimoliy Baqtriyaning ma'muriy markazlari (Tojikistonning janubiy viloyatlari va O'zbekiston) va Xolchayon hamda Dalvarzintepa chegaralaridan topilgan bo'rtma tasvirlarda o'z aksini topgan.

Munchoqtepa yodgorligidan topilgan matolar. 1988 yili Namangan viloyatining Pop tumani hududida joylashgan Munchoqtepa yodgorligida V-VII asrlarga mansub sag'ana ochildi. Uning ichida qamishdan yasalgan 50 dan ortiq tobut qo'yilgan bo'lib, ichida erkaklar, ayollar va yosh bolalar jasadlari, ular maishiy hayotda ishlatgan libos-kechaklar, ish qurollari, asbob-uskunalari, pardoz andoz va bezak buyumlar solingan edi. Marhumlarga tegishli bo'lgan bu topilmalarni ichida yog'och, suyak, teri, mato, kanop, tosh va boshqa ashyolardan ishlangan topilmalar bor edi. Ularni tezda saqlash va ta'mirlash choralari ko'rish hech kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri edi. Ushbu bobda kiyim-kechak buyumlarni bo'laklari bo'lgan mato topilmalar ustida olib borilgan ta'mirlash ishlari bayon etiladi.

Yer ostidan topilgan qadimgi matolar o'zlarini mo'rtligi va qoniqarli saqlanishidan qat'iy nazar u qimmatli ma'lumotlar beruvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Uni tekshirish orqali mato qanday tolalardan to'qilganligi, qanday usulda to'qilganligi, qanday bo'yoqlar qo'llanilgani va boshqa savollarga javob topishga yordam beradi. Lekin bu yerda yagona talab undagi hamma ma'lumotlarni saqlab qolish uchun matoni kimyoviy tuzilishini o'zgartirmasdan o'z aslini har tomonlama saqlab qolishdir. Shu sababdan qadimgi matolarni saqlashda ularni tabiiy xossalariga mutlaqo ta'sir etmaydigan tolalar va ularni bo'yoqlariga neytral bo'lgan moddalar ishlatilishi talab etiladi.

Mato ichidagi keraksiz yopishmalardan tozalash uchun eng avvalo uni biror bo'lagida zarur sinov tajribalari o'tkaziladi. Bunda asosan mato tolalari, ranglari va kirlarni ketilishiga ahamiyat berilib bularga salbiy ta'sir etmaydigan usul va moddalar belgilanib chiqiladi. Odatda bunday moddalar qatoriga glitserin,

perxloretillen va izopropil spirti kiradi. Glitserinni qo'llash qadimgi matolarni yumshatish, tozalash va egiluvchanligini oshirish uchun qo'llanilsa, perxloretillen va izopropil spirti ulardagi turli kirlardan tozalash uchun ishlatiladi. Ayrim matolar odatda perxloretilenda yaxshi tozalansa, boshqalari izopropil spirtida yaxshi ketadi. Bunday farq qadimgi matolarni namgarchilikda yoki quruq yerda saqlanganligiga bog'liq. Ikkala erituvchi ham tabiiy tolalarga va ularni bo'yoqlariga betaraf bo'lib ularni o'zgartirmaydi. Tekislangan, kirlardan tozalangan, yumshatilgan matolarga odatda pishiqligi qisman oshirilgan bo'lsada, lekin yetarli darajada emas. Ancha bo'sh, chiriganroq matolarni qotirish va orqasidan kuchaytirish (to'rlar yordamida) zarur bo'ladi. Bunday ishlar ayniqsa mato bo'laklari ajralgan holda bo'lsa va ularda rangli naqsh va gullar bo'lib katta bo'lakka yig'ish zarur bo'lganda amalga oshirish zarur. Bu ishlarni bajarishda konservatsiya usuli matoni kimyoviy moddalar yordamida kuchaytirish (pishiqligini oshirish) qo'l keladi.

Konservatsiyadan oldin mato ustidagi hamma fotoanalik ilmiy tekshirish ishlari, har bir bo'lakni naqsh va gullari qog'ozga ko'chirilgan bo'lishi zarur.

Konservatsiya ishlari odatda BAB-4M polimer yelimini etil yoki izopropil spirtida 1:12 yoki 1:16 nisbatda suyultirilgan eritmasi bilan olib boriladi. Agar matoda ortiqcha miqdorda glitserin bo'lsa konservatsiyadan oldin u bo'lakni izopropil spirtida chayib olish tavsiya etiladi.

Suyultirilgan yelim BAB-4M yordamida oq qog'ozga yotqizilgan mato shimdiriladi. Hali qurib ulgurmagani mato boshqa qog'ozga ikki varaq karton yoki ikki shisha qavati orasiga olib ko'chiriladi. Buni natijasida mato qog'oz va/yoki shishaga yopishmasligini oldi olinadi va yelimni ortiqchasi olib tashlanadi. BAB-4M yelimi bilan konservatsiya qilinganda glitserinni yo'qligi sababli matoda eski notekisliklarni ayrimlari qayta paydo bo'lishi mumkin. BAB-4M yelimi glitserin kabi termolastak material bo'lganligi uchun paydo bo'lgan notekisliklarni yo'qotish uchun qurilgan matoni isitilgan emal ustiga qo'yilsa ular tezda qayta tiklanadi. Shu holatda matolarni laboratoriyaga kuzatish mumkin.

III BOB. QADIMGI BAQTRIYA LIBOSLARINING REKONSTRUKSIYA LOYIHASI

3.1. Qadimgi matolarni konservatsiya va rekonstruksiyasi usullari

Markaziy Osiyoning, jumladan, O'zbekistonning bir qator yodgorliklarida ip yigiruv charxlarining ipga bog'lab osib qo'yiladigan toshlari va ip yigiradigan tosh, loy, keramika va metallardan ishlangan urchuq ko'plab topilgan. Osib qo'yiladigan posongi toshlari (грузило) ayniqsa Afrosiyobda ko'plab uchragan. Ularni shakli va og'irliklari turlicha bo'lib 500-700 grammdan 132-187 grammacha bor bo'lgan. Shunday yigiruv toshlari Baqtriyada (Kampirtepa), Qashqadaryoda, Tojikistonda (O'zbekon-tepa, Munchoq-tepa, Jamonbuloq qarorgohi) va Turkmanistonda (Gaur qal'a) topilgan. Bularni topilishi Markaziy Osiyoda to'quv dastgohi bor bo'lganligidan darak beradi. Ular vertikal tipda bo'lib, Qadimgi Misr va Gretsiyada ham ko'plab uchragan. Ularni tuzilishi ayniqsa Afinadan topilgan eramizdan avvalgi VI asrga mansub bo'lgan sopol ko'zada yaxshi tasvirlangan. Vertikal tipga kiruvchi bu to'quv dastgohi ikkita yog'och ustundan iborat bo'lib, u ikkala ustun tepaga ko'ndalang tushgan yog'och taxta bilan birlashtirilgan. Uning ostida tayyor mato o'raladigan val (навоё) joylashtirilgan. Valdan mato asosini tashkil etuvchi iplar osilib turadi. Bu iplarni ostidagi uchiga dumaloq yoki piramida ko'rinishidagi posongi toshlar osib qo'yilgan. Dastgohni tahminan o'rtasida ikkita ensiz taxta reyka yordamida bo'shliq tashkil etilgan. Ensiz taxtani bittasi mato asosini juft iplari, ikkinchisi esa toq iplari bilan birlashtirilgan. Taxtagachlarni galma galdan oldinga surish orqali to'quvchi bo'shliq hosil qilib unga ip uchlarini o'tkazgan. Matoni asos iplari toshlarga bevosita to'g'ridan to'g'ri bog'lanmay arqon yoki teri kamarchadan yasalgan ilmoq orqali o'tkazilgan. Arqon va teri kamarni yemirilgan izlari posongi toshlari teshiklarida keng yo'l-yo'l chiziq holida saqlanib qolgan. Ilmoq ostida matoni asos iplarini tugunlardagi qo'r-quti (запас) I ko'rinishidagi turgan. Bunday "запас"ni borligi matoni ancha uzun tayyorlash imkonini bergan. Dastgohni kengligi 1,5 metrdan keng bo'lmagan (to'quvchi ikki qo'li uzunligicha), matoni kengligi esa 70 sm.dan oshmagan bo'lishi kerak.

Posongi toshlarini 500-700 grammligardishsimon shakllari qalin, pishiq matolarni va 200 grammdagisi esa yupqa matolarni, jumladan paxta va ipak tolalarda olish uchun xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi matolar Sopollitepa qarorgohida topilgan bo'lib, u bronza davriga (eramizdan avvalgi III-II mingyilliklar) mansub bo'lib, ular tabiiy ipakning ingichka iplaridan to'qilgan. U matolarning to'qilishi surp ko'rinishida bo'lib to'quv dastgohidan foydalanilganidan darak beradi. Bu haqida shuningdek, o'sha yerda topilgan tosh va loydan ishlangan ip yigiruv toshlari tasdiqlaydi. Shu sababli sopollitepa aholisini liboslarin ipakli va junli matolardan to'qilgan deyish mumkin. Bu haqda o'sha yerda topilgan bronza ignalar, liboslardagi tosh tugmachalar, boshlari turlicha ishlangan to'g'nog'ichlar darak beradi.

O'z joyida to'qilgan mahalliy ipak mato Baqtriya Kampir-tepa yodgorligida topilgan. Bu yerdagi qabrlarni birida loydan ishlangan ayol xudosining ustida qizil ipak mato bo'laklari uchragan. Birga topilgan Xuvishka davri tangasiga qaraganda bu mato eramizni boshlarigacha to'g'ri keladi. Turkmanistonning Marv shahrida topilgan ipak mato eramizni II-III asrlariga to'g'ri keladi.

Mato qoldiqlari O'zbekistonning Namangan viloyatini Pop tumanidagi Munchoq-tepa yodgorligida 25 ta holatda, asosan sag'analardagi tobutlar orasidan topilgan. Bu matolar V-VII asrlarga mansub bo'lib, asosan paxta, ipak va jun tolalaridan to'qilgan. Tabiiyki ipakdan to'qilgan matolar paxtaliklarga nisbatan ancha durust saqlangan. Shu sababdan topilmalarni ko'p qismini ular tashkil etadi. Topilgan mato bo'laklari asosan libos, yuz yopinchiqlariga tegishlidir. Ayniqsa paxtali mato ustidagi archasimon bezak yaxshi saqlanib qolgan. Topilgan ipakli ko'ylaklar asosan mahalliy matolardan to'qilgan. Ularga pardoz berishda samit ko'rinishdagi polixron ipaklar qo'llanilgan bo'lib, ular o'simliksimon tasvirlar bilan bezalgan. Liboslarining ko'pchilik qismi qizil marsigo bo'yog'i bilan bo'yalgan matolardan to'qilgan. Ayrim hollarda bo'yoq sifatida indigo ham ishlatilgan. Topilgan mato qoldiqlari asosida liboslarni ko'rinishi tiklangan. Ular orasida erkaklar, ayollar va bolalar liboslari mavjud.

Qadimgi mato topilmalarini ta'mirlash usullari.

Yer ostida ko'p vaqt yotgan jun va o'simliklar tolasidan to'qilgan matolar tashqi ta'sirga uchragan bo'ladi. Qadimgi qabrlarda uchraydigan matolar inson tanasini parchalanishi va chirishi natijasida hosil bo'luvchi kislotalar, ishqorlar, temir tuzlari, gumin moddalar, smola va yog'lar ta'sirida ancha shikastlangan bo'ladi. Yer ostidan topilgan qadimgi matolar o'zlarini mo'rtligi va qoniqarli saqlanishidan qat'iy nazar u qimmatli ma'lumotlar beruvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Uni tekshirish orqali mato qanday tolalardan to'qilganligi, qanday usulda to'qilganligi, qanday bo'yoqlar qo'llanilgani va boshqa savollarga javob topishga yordam beradi. Lekin bu yerda yagona talab undagi hamma ma'lumotlarni saqlab qolish uchun matoni kimyoviy tuzilishini o'zgartirmasdan o'z aslini har tomonlama saqlab qolishdir. Shu sababdan qadimgi matolarni saqlashda ularni tabiiy xossalariga mutlaqo ta'sir etmaydigan tolalar va ularni bo'yoqlariga neytral bo'lgan moddalar ishlatilishi talab etiladi. Bu buzuvchi omillar ta'sirida tolalar o'z tuzilishini ancha o'zgartirgan va o'zining asosiy sifatlari – pishiqligi, mayinligi va egiluvchanligini yo'qotgan bo'ladi. Shu sababdan ta'mirlashdan oldin mato har tomonlama tekshirilib saqlanish darajasi, yopishgan moddalarni tarkibi o'rganilib tozalash usullari belgilanadi. Mato ichidagi keraksiz yopishmalardan tozalash uchun eng avvalo uni biror bo'lagida zarur sinov tajribalari o'tkaziladi. Bunda asosan mato tolalari, ranglari va kirlarni ketilishiga ahamiyat berilib bularga salbiy ta'sir etmaydigan usul va moddalar belgilanib chiqiladi. Odatda bunday moddalar qatoriga glitserin, perxloretlen va izopropil spirti kiradi. Glitserinni qo'llash qadimgi matolarni yumshatish, tozalash va egiluvchanligini oshirish uchun qo'llanilsa, perxloretlen va izopropil spirti ulardagi turli kirlardan tozalash uchun ishlatiladi. Ayrim matolar odatda perxloretlenida yaxshi tozalansa, boshqalari izopropil spirtida yaxshi ketadi. Bunday farq qadimgi matolarni namgarchilikda yoki quruq yerda saqlanganligiga bog'liq. Ikkala erituvchi ham tabiiy tolalarga va ularni bo'yoqlariga betaraf bo'lib ularni o'zgartirmaydi. Tekislangan, kirlardan tozalangan, yumshatilgan matolarga odatda pishiqligi qisman oshirilgan bo'lsada, lekin yetarli darajada emas. Ancha bo'sh, chiriganroq matolarni qotirish va

orqasidan kuchaytirish (to'rlar yordamida) zarur bo'ladi. Bunday ishlar ayniqsa mato bo'laklari ajralgan holda bo'lsa va ularda rangli naqsh va gullar bo'lib katta bo'lakka yig'ish zarur bo'lganda amalga oshirish zarur. Bu ishlarni bajarishda konservatsiya usuli matoni kimyoviy moddalar yordamida kuchaytirish (pishiqligini oshirish) qo'l keladi.

Agar matoni saqlanishi qoniqarli darajada bo'lsa eng birinchi va dastlabki vazifa uni yuvish orqali yopishgan loyqa va tuproqlardan tozlashdir. Bu ishni bajarish uchun matoni alohida bir cheti yoki bo'lagida suv ta'sirini oldin sinab ko'rish kerak. Agar mato suvga chidamli bo'lsa va bo'yoq rangini o'zgartirmasa bu ishni amalga oshirish mumkin. Yuvish uchun qiya qilib qo'yilgan stol ustiga politilen taglik yopib ustidan doka yoki latta to'shaladi. Uning ustiga tozaladigan mato joylashtirib ustidan ikki uch qavat doka qatlami bilan yopiladi. Keyin gubka suv bilan shimdirilib shu suv bilan mato ehtiyotlik bilan ho'llanadi. Shimdirilgan suv mato tarkibidagi kir va yopishmalarni eritib ostiga to'shalgan doka yoki lattaga shimdiriladi. Bunday yuvish oqib chiqayotgan suv toza bo'lguncha davom ettiriladi.

Moskvadagi Davlat tarix muzeyi laboratoriyasida matolarni yuvish uchun maxsus yog'och ramkalar yoki chambaraklar tayyorlanib ular orasiga mato joylashtirilgan ikki uch qavatli doka tortiladi. Ramka tozalanadigan mato bilan suvli idish ichiga tushiriladi. Bu usul matoni ikki tomonini yuvish imkonini beradi.

Agar mato yaxshi saqlangan bo'lsa bolalar sovunida yoki uning ko'pigida yuvish mumkin. Buning uchun eng avvalo mato bo'lagida yoki bir chetida sovunni surtib ko'rish tavsiya etiladi. Agar mato holatiga va rangiga sovun yoki uni ko'pigi salbiy ta'sir etmasa bu usulni qo'llash mumkin. Bu usulda yuqoridagi ramkaga tortilgan matodan foydalanish mumkin. Buning uchun avval ko'pikli suvda yuvish so'ngra sovunni ketkazish uchun distillangan suvga yuvish zarur bo'ladi.

Tozalashni eng afzal yo'li bu suv pari oqimida yuvishdir. Bunda kir, chang va boshqa ko'pchilik mineral va organik birikmalarni ketkazish bilan birga rangiga butunlay ta'sir ko'rsatmaydi. Par olish uchun oddiy 5-6 litrli ruxli bak olinib uni qopqog'I yaxshilab berkitiladi. Oldindan qopqoqqa ikkita teshik, biri kengroq (12-

15 sm.) kauchuk tiqish uchun, ikkinchisining diametri 7-8 sm.lik bo'lib unga metall (mis) trubka eritib yopishtirish uchun. Bu trubkani uchi Γ shaklida bo'lib unga oxiriga shisha trubka kirgizilgan bo'ladi. Kauchukli tiqinga kichik teshik o'tkazilib unga shisha trubka joylashtiriladi. Bu shisha trubkani uchi bak ichiga 2-3 sm kirishi va tashqariga 70-80 sm chiqib turishi kerak. Bakni yon tomondan yuqoridagi qopqoqdan taxminan 5-6 sm pastda misdan suv chiqaruvchi kran yopishtirilgan bo'lishi zarur.

Apparat tayyor bo'lgandan keyin suvni chiqaruvchi kran ochilib kauchukli trubka orqali bakka suv to'ldiriladi. Suv krangani to'g'risida borganda ortiqchasi undan oqib chiqib ketadi. Bundan keyin kranga berkitilib kerosinkaga yoki gaz gorelkasi ustiga qo'yiladi. Suv qaynagandan keyin shisha nayga uchidan par oqimi chiqqa boshlaydi. Suv qaynagan sari probkaga joylashtirilgan shisha trubkadagi suv ko'tarila boshlaydi. Bu kuchli qizdirish natijasida bakni yorilib ketishini oldini oluvchi regulyator vazifasini bajaradi.

Matoni tozalash uchun stol yoki taxtaga dokaga o'ralgan gigroskopik paxta yotqizilib uni ustiga mato joylashtiriladi. Mato ustidan doka yopiladi, uni ustidan suv bug' oqimi yuboriladi. Bug' ta'sirida ajralgan kirlar va erigan tuzlar mato ostidagi paxtaga shimdirilib to'planadi. Bu ish bug'da eruvchi kirlar tozlanguncha davom etadi. Lekin bug' yordamida mavjud bo'lgan smola va moylar erimaydi. Bularni tozlash uchun organik erituvchilar – benzin va atsetonlardan foydalaniladi. Bular yonuvchi bo'lganligi uchun ehtiyot bo'lib ishlash kerak. Ular shuningdek mato tarkibidagi bo'yoqlarni eritishi ham mumkin. Shu sababli organik erituvchilarni ishlatishdan oldin tozalanadigan matoni biror bir chetida sinab ko'rish talab etiladi.

Mato tozalashda to'rt xlorli uglerod ham yaxshi natija beradi. Uning afzalliklari- u yonmaydi, yog' va smolalarni yaxshi eritadi va bo'yoqlar rangini ketkazmaydi. Shuningdek bu ishlarda dixloretanni ham qo'llash mumkin, lekin u juda zaxarli bo'lganligi uchun odamga qattiq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Matoni tozalashni quritilgandan keyin olib borish kerak. Tozalash uchun qurigan matoni doka qavatlari orasiga joylashtirilib yog'och ramkaga tortib

yopishtiriladi va organik erituvchi quyilgan idishga tushiriladi. Matoni, ayniqsa jundan to'qilganlarini erituvchida uzoq vaqt ushlab bo'lmaydi. Toza bo'lgan matoni suvda yoki suv bug'ida ushlab turib erituvchidan tozalash zarur.

Ko'pincha suvda va erituvchilarda tozalagandan keyin matoda qoramtir izlar yoki sariq malla rangli dog'lar saqlanib qoladi. Bunday holat ko'pincha matoda temir oksidlari ta'sirida paydo bo'ladi. Ularni yo'qotish uchun odatda limon kislotasini kuchsiz eritmasidan (5-10%) foydalanish tavsiya etiladi. Limon kislotasi temir oksidlarini suvda eruvchi limonnokisloe holatiga o'tkazadi. Limon kislotasi vannasidan keyin mato suv bug'ida ushlab yo'li bilan undan tozalanadi. Tozalangan mato tekislab yotqizilgan holatda quritiladi.

Keyingi ishlar tozalangan mato hususiyatlarini tiklash (namlik, pishiqlik, egiluvchanlik va boshqalar) bilan bog'liq bo'ladi. Bu ishlar turli qotiruvchi moddalar yordamida amalga oshiriladi. Bunda mato tolalarini qotirish uchun jelatina ishlatiladi. Jelatina bu – hayvon yelimi bo'lib, u oqsillardan iborat. U odatda hayvon suyaklari va terilarini uzoq vaqt qaynatish orqali olinadi. Uni qo'llaganda jelatina eritmalari tola teshiklari orasiga kirib suvi qurigandan keyin tolalarni bir-biriga yopishtirib mato pishiqligini oshiradi. Tolalarni havo ta'siridan saqlash uchun mato yuziga saqlovchi-havo o'tkazmaydigan kraxmal kleysteriyelimi surtiladi. Bu yelim mato tolalarini oksidlanishdan saqlab faqat mato yuzidagi saqlovchi qatlamnigina buzilishiga yo'l berishi mumkin. Mobodo bu saqlovchi qatlam buzilgan taqdirda uni tuzatish ancha oson ko'chadi. Bundan tashqari bu kraxmalli yelimni matoga berilishi uncha yumshoq (mayin)lik, qalinlik va egiluvchanlik hususiyatlarini beradi.

Matoni to'rga yopishtirish uchun ham shu kraxmal yelimi ishlatiladi. Uni tarkibiga quyidagi yelimlovchi, yumshatuvchi, erituvchi va zamburug'larga qarshilik ko'rsatuvchi moddalar qo'shiladi (% hisobida):

| | | |
|-------------------------|---|------|
| Bug'doy uni 30 % 1-nav | - | 1 |
| Jelatina oliy navi | - | 0,25 |
| Glitserin kimyoviy toza | - | 2 |

| | | |
|--|---|-------|
| Spirt rektifikat | - | 15-20 |
| Kimyoviy toza timol yoki benzoat kislota | - | 0,1 |

Bu yelim quyidagicha tayyorlanishi tavsiya etilgan: 3-4 litr yelim tayyorlash uchun 90-120 gram elangan bug'doy uni, 90-120 sm³ glitserin, 3-4 gramm benzoat kislota olinadi (agar timol olinsa uni spirtga tayyorlab tayyor bo'lgan yelimga qo'shiladi). Bularni hammasini 1-1,5 litrlik chinni stakanga solib aralashtirib keyin unga 0,75-1 lit distillangan suv qo'shiladi. So'ngra stakan suv hammomiga qo'yilib qaynaguncha qizdiriladi. Uni yopib, to'planib qolmasligi uchun shisha tayoqcha bilan aralashtirib turiladi. Yelim haroratini 90° C gacha etkazgandan keyin tayyor bo'lgan issiq yelimga suvda yumshatilgan va salgina siqib tashlangan jelatina qo'shiladi (5-7 gramm). Issiq eritmada jelatina tezda erib aralashib ketadi. Keyin stakan suv bilan to'ldirilib uch to'rt qavat to'r bilan berkitilgan varonkaga qo'yib suzib o'tkaziladi. Suzilgan yelim 5 litrlik kastyulkaga quyilib unga to'lguncha distillangan suv (3-4 litr) va spirt (400-500 sm³) qo'shiladi. Kastyulka ichidagi suyuqliklar shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashtiriladi.

Matoni to'rga yopishtirish alohida stolda bajariladi. U stolni uzunligi har xil bo'lib ta'mirlanayotgan namunani uzunligiga bog'liq (1×2 m., 2×4,5 m., balandligi 0,8 m.). bu stol usti qalin fanera bilan qoplangan bo'lib, ustiga yuzi silliq bo'lgan linoleum yopishtirilgan bo'ladi. Linoleum ustiga kimyoviy toza parafinni mayda bo'laklari tashlanib issiq dazmol bilan silliqlanadi. Parafin sovugandan keyin stol usti yumshoq shetka bilan supurib chiqiladi va so'ngra ishqalab silliqlanadi. Bunday ishlov berish mato va to'rni stolga yopishib qolmasligini oldini olish uchun zarur.

Matoni yopishtirish uchun ishlatiladigan to'r kataklari kichik bo'lishi ma'qul, chunki, mato bilan to'rni yopishish maydoni ularni miqdoriga bog'liq, demak yopishish mustahkamligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Qoramtir matolarni yopishtirishda oq rangli to'r keskin ko'zga tashlanadi. Shuning uchun uni neytralroq rangga bo'yash zarur.

Eskirgan va chirigan matolarni to'rga yopishtirish usullari turlicha bo'lib ularni holatidan, qalinligidan va iplarini pishiqligiga qarab tanlanadi. Yuqoridan yelimni faqat to'rga yoki to'r va matoga yoki boshqacha usulda berish mumkin. Amalda ko'proq yelim to'rga va matoga surtiladi.

Bu ish quyidagicha amalga oshiriladi. Stol ustiga to'r yotqizilib uni hamma tomonlari 5-10 sm.ga tushib turishi kerak. To'rni stol ustidan osilib turgan hamma tomonlariga ensiz tasma (3-4 sm.kenglikda) ko'rinishida yelim surtib chiqiladi. Keyin to'rni hamma tomonidan tortib bukilgan kataklarni, tahlanib qolgan burma va notekisliklar to'g'irlanadi. Yelim qurigandan keyin to'r stolga tekis yopishtiriladi. So'ngra to'rga mato orqa tomoni bilan yotqiziladi va mato holati aniqlab olinadi. Bunda to'r asosini iplari mato asosi iplariga parallel joylashishi kerak. Matoni yopishtirish stol chetini ma'lum masofasidan (5-8 sm.) boshlab matoni ko'ndalang chetidan yelimlanadi. Yopishtirilayotgan matoni 10-12 sm.li kenglikdagi chetini teskari tomonini tepaga qilib bukiladi. Undan keyin to'r va matoga yassi shetka yordamida mo'l qilib yelim surtiladi. So'ngra matoni yelim surtilgan chetini yelim surtilgan to'r maydoniga yotqiziladi, so'ngra yaxshilab tekislanadi va silliq suyakcha yordamida yaltiroq bo'lguncha ishqalanadi. Mato cheti yopishgandan keyin uni yopishtirilgan chetiga qarab rulon qilib o'raladi va suyak yordamida silliqilanadi. Matoni yopishtirilmagan qismi yana rulon qilib o'raladi, to'r va matoni yelimlab yopishtiriladi va suyakcha yordamida silliqilanadi.

Shunday qilib katta bo'lmagan maydonlarni yelimlash yo'li bilan to'rga hamma matolar yopishtiriladi.

Agar mato katta bo'lmagan bo'laklardan tashkil topgan bo'lsa ularni rasm va naqshlari bo'yicha joylashtiriladi, yetishmaydigan yerlari bo'sh qoldiriladi. Mayda bo'laklarni orqa tomoniga yelim surtilib yopishtirilgan to'r ustiga yotqiziladi va tekkislanib suyakcha yordamida sillilanadi. Bir necha bo'laklarni yopishtirilayotganda ularni chetlari bir biriga to'g'ri va yaqin tushishiga alohida e'tibor berish kerak.

Mato yelimlanib bo'lgandan keyin uni ustiga quruq to'r bo'lagi tashlanadi va rezinali g'ildirak valik bilan bosib chiqiladi. Bunday bosilganda to'r ivib ketadi.

Stolga yopishtirilgan mato ko'chib ketmasligi uchun to'rni juda ehtiyotkorlik bilan ko'chirib olinadi. Shu holatda mato butunlay qurigandan keyin to'r va matoni bir burchagidan uzunasiga tortib stoldan ko'chiriladi. Matoni orqa tomonida odatda turli nuqsonlar – yaxshi yelimlanmagan joylar, to'rni yopishib qolgan katakchalari, burmalari va hokazo mavjud bo'lishi mumkin. Ularni yo'q qilish uchun yopishtirilgan matoni orqa tomonini ikkinchi marta yelimlab chiqiladi. Bu ishni bajarish uchun stol yangitdan toza, quruq to'r bilan yopib chiqiladi. Uni ustidan matoni yelimlangan tomonini tepaga qaratib yuziga yelim surtiladi. Ikkinchi marta yelimlashda hamma kamchiliklar tuzatiladi. To'r va matoni chetlari yelimlab qotiriladi. Quritilgandan keyin mato ostidagi to'r bilan birga ko'chirilib stol ustiga yotqiziladi. Lekin bunda matoni yuz tomoni tepaga qaratiladi. Shundan so'ng mato yuzidan to'r olina boshlaydi. Agar to'r qiyinroq ko'chayotgan bo'lsa uni yuziga pulverizator yordamida ozgina suv va spirt eritmasidan sepib chiqish kerak. So'ngra yakuniy pardozi berishga tushiladi. Buning uchun stol chetlaridan to'rni ortiqchalari kesilib, matoni yuz tomoni yumshoq shetka yordamida tozalab chiqiladi. Yopishtirilgan matoni yumshatish uchun u turli yo'nalishlarda bir necha marta rulon qilib o'rab chiqiladi. Shu bilan yopishtirish ishlari tugaydi.

Juda chirib buzilgan matolarni (kuyib ketgan, chirigan, buzilib ketgan va hokazo) tolalari o'zini dastlabki hossalarni yo'qotganligi sababli ularni qotirish zarur. Qotirish uchun sintetik smolalar eritmaları qo'llaniladi. Bu eritmalar matolarni egiluvchanlik, pishiqlik va boshqa hossalarni tiklash imkonini bermay, faqatgina ularni hozirgi holatini saqlab qolish – konservatsiya maqsadlarini ta'minlaydi. Buning uchun turg'un, chidamli va yaxshi saqlaydigan sintetik smolalar ishlatiladi. Bunday smolalar qatoriga *polibutilmetakrilat* (uni ksiloldagi 2-3 % li eritmasi), *polivinilatsetatli lak*, *polivinilbutiral* (uni stertobenzoldagi 2-3 % li eritmasi) kiradi. Ularni ishlatishda pulversatordan foydalanib bir necha marta sepish orqali amalga oshiriladi. Bunday asosiy talab – mato rangini o'zgartirmaslikdir. Bu ishlar uchun shuningdek jelatinani (2 %li eritmasi) qo'llash mumkin. Ammo jelatina surtilgandan keyin albatta mato formalin bug'larida ohorlash kerak bo'ladi. Yaxshi saqlanib qolgan matolarni va to'rga

yopishtirilganlarni ikki oyna orasiga joylashtirib chetlarini havo kirmaydigan qilib eksponat sifatida namoyish etish mumkin.

Matolarni laboratoriyada ta'mirlash ishlari bir necha bosqichlardan iborat:

I. Plastifikatsiya – yer ostidan topilgan matolar juda mo'rt bo'lib tozalashdan oldin ularga yopishqoqlik – plastik hossalarni qaytarish zarur. Buning uchun laboratoriyaga olib kelingan matolarni qog'oz orasidan olib fotorasmlari olinadi va toza perxloretlen bilan shimdiriladi. Erituvchini uchib chiqib ketishini poylab o'tirmasdan matoga glitserin tomiziladi. Bu ishda asosiy talab – suv aralashtirilmagan kimyoviy toza glitserinni qo'llash kerak. Agar suv aralashsa kuchsiz bo'lgan tolalarni yo'q qilishi mumkin. Suv ta'sirida tolani suyuq loyqaga aylanishiga olib keladi. Shimdirilgan matolar quruq joyda saqlanadi.

II. Matodagi notekisliklarni va qatlamlarni tuzatish – bir sutka va undan ortiqroq vaqt o'tgandan keyin arxeologik matolar ancha egiluvchan bo'lib qoladi va o'zini qadimgi tabiiy xossalarni tiklaydi. Endi mato qavatlarini sekin asta bir biridan ajratish mumkin bo'ladi. bu holatda endi ehtiyotlik bilan yopishgan joylarni va qatlamlarni ko'chirish mumkin. Lekin dag'al burma va choklarni tekislashga shoshmaslik kerak.

III. Matolarni g'ijimlangan joylarini tekislash – matolardan mavjud bo'lgan burma, qat-qat joylarni va dag'al siniq taxlarni ham glitserin yordamida tekislanadi, lekin buning uchun sovutilgan emas isitilgan glitserin ishlatiladi. Buning uchun mato oq qog'oz ustiga joylashtirilib usti ipak bilan yopiladi. Shu ko'rinishda osti tekis bo'lgan to'rtburchak emal idish (kyuvet)ga joylashtiriladi. Oq qog'ozga oldinroq yupqa qilib suyultirilmagan glitserin quyilgan bo'ladi. Kyuvet ostiga issiq suv to'ldirilgan kichik idish qo'yiladi. Issiq suv ta'sirida glitserin qizib burma, notekisliklar sekin-asta tekislana boradi. Buning natijasida matodagi dag'al bukilma va taxlarda yoriqlar hosil bo'lmaydi. Bu ishni amalga oshirilayotganda vaqti vaqti bilan matoni yassi kurakcha – shpatel yordamida surib joyiga qo'yib turish kerak. Bu ishni amalga oshirishda ingichka ipakli tayoqcha yordamida olib borgan yaxshi natija berishi mumkin, chunki ta'mirlovchini qo'li yoki asboblari mato tolasiga yoki uni bo'lagiga tegib yopishib qolishi mumkin. Tabiiy ipak-

arxeologiya matolariga nima shimdirilganidan qat'iy nazar yengil ko'chadigan yagona materialdir. Matodagi notekislik va burmalar tekislanib uni ostiga va ustiga ipak yotqizilgandan keyin qog'oz salfetkalariga ko'chiriladi. Shu holatda mato karton ustiga o'tkazilib qog'oz papkaga joylashtiriladi va yengil press ostiga bostiriladi.

IV. Matodagi kir va yopishmalardan tozalash – matolardagi kirlar organik erituvchilar solingan idish – vannochkalarda ketkaziladi. Bir hil holatda matolar perxloretilda yaxshi ketkazadi. Bu ahvol qadimgi matolar qanchalik nam sharoitda turganligiga bog'liq bo'lib quruq yerda perxloretlen solingan idishda yaxshi tozalanadi. Yirik bo'lakli matolarni erituvchi solingan idishga tushirishdan oldin yupqa ipak mato bilan o'rab qalin oq qog'oz yordamida keng nay trubka holiga keltirish zarur. Bu nay iplar bilan bog'lanib erituvchi solingan shisha idish bankaga tushirilib qopqoq bilan yopiladi. Erituvchi solingan idishdagi matoni yengilgina chayqatib turish yo'li bilan kirlarni ketishini ta'minlash kerak. Shakli murakkab bo'lgan mato bo'laklarini yuziga yupqa ipak to'r bilan qog'ozga yopishtirish yaxshi natija beradi. Buning uchun mato tag-qatlamga perimetri bo'yicha tikib chiqilishi tavsiya etiladi. Kirlangan erituvchini vaqti vaqti bilan chiqarib tashlab tozasi bilan almashtirib turiladi. Kirlarni tozalash bir soatdan olti soatgacha davom etishi mumkin. Tozalangandan keyin ipak parda ustidagi mato idishdan chiqarilib quritilgandan keyin lupa yoki mikroskop yordamida tekshiriladi. Uni ayrim joylarida, tolalari va burmalari orasida hashorotlarni mayda urug'-pillalari va o'simlik ildizlari uchrashi mumkin.

V. Tozalangan qadimgi matolarni ko'rgazmaga tayyorlash – agar mato yetarli darajada mustahkam bo'lsa va boshqa naqshli bo'laklarni biror qismi bo'lmasa oddiy qalin qog'oz varag'ini ikkiga buklab yasalgan konvertga solib saqlash mumkin. Konvert ustiga mato haqidagi ma'lumotlar yozilgan bo'lishi kerak. Konvert yaxshi saqlanishi uchun, konvert yasalgan qog'oz ustidan mikalentali qog'ozga o'ralgan bo'lishi zarur. Agar noyob va nodir topilma bo'lgan matolarni muzeyga qo'yish rejalashtirilayotgan bo'lsa unda bunday yodgorliklarni maxsus yasalgan yuza qutiga joylashtiriladi.

Yig'ishni bir xil rangdagi yupqa matolar ustida bajarish zarur. Arxeologik matolarga odatda ko'proq issiq kulrang yoki salgina yaxshi tusli, "xaki" rangiga yaqin bo'lgan tagrang-fon ancha muvaffaqiyatli ko'rinadi. Bu rangni odatda ipakli yoki paxtali matolar pustirnik o'simligi qaynatmasida ishlob berib ustidan mis va temir kuparosini kam konsentratsiyali eritmasiga solish orqali amalga oshiriladi. Qadimgi mato yopishtiriladigan parda paxtali yoki tabiiy ipakdan bo'lishi mumkin. Yopishtirish uchun A-45-K yelimini puflagich yordamida orqa tomoniga yuborilib yopishtiriladi. Matoni kichik bo'lakchalarini nuqtalab quyuq yelimni igna yoki shpatel yordamida ma'lum nuqtalarga tushirib yopishtirish mumkin. Zarur bo'lgan quyuq yelimni tayyorlash uchun uni uzoq vaqt tyaga ostida ushlab kerak. Bunday yelimni zarurligi shundaki, u mato orasidan o'tmay faqat yuzidagina qoladi. Bu yelim ajoyib qayta eruvchidir. U atseton yoki atseton va izopropil spirtida (2:1 nisbatda) oson eriydi. Yelimni puflagichga sohib berish uchun uni suyultirish kerak. Bu yelimni dastlabki konsentratsiya atsetonda eritilgani 5 %ni tashkil etadi. Puflagichni shunday ushlab kerakki yelimni oqimi stolga teskari tomoni bilan yotqizilgan matoga parallel uchsini. Bu vaqtda yelim tomchilari uchib o'ta yotganda erituvchisi qolmagan polimer ingichka tolalar ko'rinishida mato ustiga joylashadi. Bunday ishlov berilgan mato boshqa tag qatlamga o'tkazilib, yopishtirilgan parda matoni yuzini orqa tomonga yopishtiriladi.. shunday qilib ko'rgazmaga qo'yiladi.

3.2. Libos loyihasini to'liq qayta tiklash.

Ushbu fasl Markaziy Osiyo qadimgi ko'chmanchilarining liboslarini o'rganish metodikasiga bag'ishlagan. Ilmiy nashrlarda kechki qadimiy davr ko'chmanchilar jamiyati liboslar kompleksini tadqiq etishda tabiiy fanlar metodlaridan foydalanish masalalariga bag'ishlagan alohida bo'limlar paydo bo'lmoqda. Qabrlardan olingan kiyim parchalarini o'rganishda ularni konservatsiya, restavratsiya va rekonstruksiya qilish metodlarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda, arxeologik, yozma va tasviriy manbalardan foydalangan holda, Qadimgi va o'rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari aholisi liboslarni ilgari uchramagan rekonstruksiyalariga duch kelmoqdamiz.

Keyingi yigirma yillar mabaynida rus libosshunoslik tadqiqotlarida, Evroosiyo dashtlari hududidan topilgan dafn-janoza komplekslarida, ko'chmanchilar liboslarining qismlarini o'rganish metodikasiga oid masalalar tez-tez ko'tariladigan bo'lib qoldi⁷. "Arxeologik libos"ni qotirib qo'yish (fiksatsiya) va tavsiflash jarayoni keyinchalik narsalarni mayda-chuydalarigacha rekonstruksiya qilishda ob'ektiv natijaga erishishga qaratilgan ishlarni optimal ketma-ketlikda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim, taqinchoq kabilarning ibtidoiy ko'rinishini qayta tiklashning bu xildagi jarayonida manbalarning yozma, tasviriy, etnografik va lingvistik dalillar kabi boshqa turlari ham muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

XX asrning 30-yillarida etnografiya ma'lumotlari asosida liboslarni tadqiq etish metodikasi ishlab chiqildi. 1933 yilda «Советская этнография» jurnalida N.I. Gagen-Torn maqola e'lon qildi⁸. Unda yozilishicha, etnograf va arxeologning

⁷ Карпеева Е.В. Реставрация и консервация меховой и кожаной одежды // Феномен алтайских мумий. – Новосибирск, 2000.; Мороз М.В., Шумакова Е.В. Реставрация тканей и войлоков // Феномен алтайских мумий. – Новосибирск, 2000; Никитина К.Ф. Реставрация археологических находок из органических материалов памятника Аржан-2 // Аржан. Источник в долине царей. Археологические открытия в Туве. – СПб., 2004; Яценко С.А. Костюм древней Евразии: ираноязычные народы. – М., 2006; Усманова Э.Р. Костюм женщины эпохи бронзы. Опыт реконструкции. – Лисаковск ; Караганда, 2010.

⁸ Гаген-Торн Н.И. К методике изучения одежды в этнографии СССР // Советская этнография. – 1933. – №3–4.

ishida eng asosiy printsip libosning shakli va bichimiga qarab xos xususiyatiga urg'u berishni nazarda tutadigan vazifaviy yondashuv bo'lishi kerak (134-b.).

Bundan tashqari, buyumlarni kompleks o'rganib, turli davrlarda va turli xalqlardagi mo'jizaviy (magik) ramzlarni kuzatib borish mumkin (123-b.).

Topilmaning yomon saqlangani bois ham arxeologiya ma'lumotlariga qarab ob'ektiv rekonstruksiya erishish anchagina qiyin ish. Kerak bo'lsa o'rganilayotgan dafn yodgorligining xos jihatlarini e'tiborga olish kerak bo'ladi. Libosni rekonstruksiya qilishni murakkablashtiruvchi muhim omillardan biri qabrdagi narsalarning saqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-iqlim sharoitidir. Tabiiy jarayonlarning arxeologik ob'ektga ta'siri natijasida undagi buyumlar, o'zining dastlabki ko'rinishini yo'qotib, nihoyatda katta deformatsiyaga uchragan bo'lishi mumkin. Ko'pincha, umuman, rangi, materiali va tuzilishi haqida tasavvur hosil qilish imkoni bo'lmay qoladi. Ammo, topilmalar qoniqarli ahvolda saqlangan vaziyatlar ham bo'ladi.

XX asrga kelib, turli yillarda Markaziy Osiyo hududida skif-sak davridagi abadiy muzlik zamonidan qolgan ob'ektlarni ko'pgina rus olimlari o'rganishgan (M.П. Грязнов, СВ. Киселев, С.И. Руденко, А.Д. Грач, В.Д. Кубарев, З.С Самашев, В.И. Молодин, Н.В. Полосьмак.). Ulardan В.И. Молодин «Феномен алтайских мумий» kollektiv monografiyaning bir bo'limida “muzlagan” qabrlar qazilmalarida qo'llanilgan bir talay metodik usullarni e'lon qildi⁹. Bu xildagi arxeologik ob'ektlar bo'yicha tadqiqot metodikasidan foydalanish tajribasi Uqoq platosidan topilgan, odamlari kiyimi bilan mo'miyolangan Pazzirik madaniyati qazilmalari (Oltoyda) kabi noyob dafinalarni o'rganish chog'ida sinovdan o'tgan. To'qmachilik, mo'ynachilik, ko'nchilik, kigiz ashyolarni dala va laborotoriya sharoitlarida konservatsiya va restavratsiya qilish ishlariga alohida e'tibor berildi. Kitob nashrining bo'limlaridan birida liboslarni, bosh va oyoq kiyimlarini, aksessuarlarni saqlash: mumiyo moddalardan obdan xalos qilishdan tortib, maxsus kameralarda saqlashdek alohida sharoitlar yaratguncha bo'lgan tafsiloti batafsil va

⁹ Молодин В.И. Методика археологических исследований памятников с мерзлотой // Феномен алтайских мумий. – Новосибирск, 2000.

puxta bayon etilgan¹⁰. Matolarning zararlanganlik darajasini aniqlashda shu narsa ma'lum bo'ldiki, past harorat va muz material va organika tuzilishining butun saqlanishiga qulay sharoit yaratib turar ekan. Arxeologik mato yuzasidan ishlab chiqilgan ishlov berish metodikasi pazzirik gazlamalari va kigizlarini, fizik va kimyoviy usullaridan foydalangan holda kompleks o'rganishda muvaffaqiyat bilan qo'llanildi. Qadimgi bo'yoqlar turlari va manbalarini aniqlash maqsadida turli bilim sohalari mutaxassislari tomonidan asli tabiiy va noorganik bo'lganligi, yasaliş texnologiyasiga qarab, xom ashyoning kimyoviy tarkibini aniqlagan holda buyumlarni bo'yash muammolari bilan bog'liq masalalar hal qilindi.

“Muzlagan” qabrlardan chiqqan liboslarning konservatsiya va restavratsiyasi metodlarining muvaffaqiyat bilan qo'llanilishiga Moskva davlat tarix muzeyi texnolog-olimlari guruhi mehnati bilan erishildi.

Katandin qo'rg'onidan chiqqan chakmon bilan “frak”ni restavratsiya qilish ishlari davlat tarix muzeyi xodimlari tomonidan XX asr 30-yillarining o'rtalarida boshlangan edi. Unda hali matoni saqlashning an'anaviy vositalari o'rniga zamonaviy tabiiy-ilmiy metodlar kelib ulgurmagan edi. 2000 yillarda restavratsiya texnologiyasi, biopolimerlar va mikrobiologiya sohasi mutaxassislari qadimgi liboslarni eng yangi ishlanmalar asosida buzilish jarayonini to'xtatishga uninib ko'rishdi. Katandin chakmonining charm asosiga polimer material - parilen bilan ishlov berildi. Buning natijasida buyumning satxi ancha mustahkam va egiluvchan bo'ldi.

Oltoyning “shohona” qo'rg'onlaridan topilgan butun boshli ko'milib yotgan libos komplekslari sovuq iqlim sharoiti tufayli ajoyib tarzda saqlanib qolgan.

Arxeolog, ko'pincha, qachonlardir bir butun libos ansambli holida bo'lgan, ko'milgan joyida yo tartibsiz sochilib yotgan, yoki aniqlash qiyin bo'lgan mayda qismlar uyumi holatidagi mato, kigiz, teri, mo'yna parchalariga duch keladi. Bunday hollarda tuproq kondensatida hosil bo'lgan namlik qabrdagi buyumlarga halokatli ta'sir etuvchi asosiy ko'ngilsiz omil bo'lib xizmat qiladi. Ichki muhitning

¹⁰ Карпеева Е.В. Реставрация и консервация меховой и кожаной одежды // Феномен алтайских мумий. – Новосибирск, 2000; Мороз М.В., Шумакова Е.В. Реставрация тканей и войлоков // Феномен алтайских мумий. – Новосибирск, 2000.

shiddatli ta'siri oqibatida dafn qilingan shaxsning ust boshidan, ko'p hollarda faqat metal zeb-ziynatlar saqlanib qoladi.

Qabrda faqat libos va bosh kiyimga qadalgan nishon bezaklarning mavjud holatlari bronza davri Liskovskiy-I qibrisoni, Qozog'istondagi Issiq saklar qo'rg'oni, Tuvadagi ilk-skif zamonidagi Arjan-2 kompleksi, Lokot-4a qabrisoni, Oltoydagi Xankarin pazzirrik jamoasi yodgorligi qazilmalarida kuzatildi. Masalan, Arjan-2 asosiy qazilmasidagi tapilmalarni tekshirishda restavratorlar topilgan matolarni, temir, yog'och va suyak buyumlarni deformatsiyadan saqlash uchun o'sha joyning o'zida tozalab, konservatsiya eritmalari bilan ishlov berishgan. Ushbu vaziyatda dala ishlari jarayonidagi muhim metodik usul deb organik va noorganik materialdan qilingan buyumning barcha qoldiqlarini qunt bilan fiksatsiya qilishni hisoblash kerak bo'ladi. Libos kompleksini restavratsiya qilishning boshlang'ich bosqichida topilgan buyumlarning suratini chizib, fotoga olib olish kerak. Bu metodika libosning ko'milgan shaxs tanasining muayyan qismiga bosh, bel, oyoq va qo'llariga mansub elementlarining holatini nisbiy aniqlik bilan belgilab olish imkonini beradi. Chizmada materialning barcha qismlari, ularning saqlanish darajasidan qat'i nazar, aks etishi muhim.

1990 yillar boshlaridan oldin o'tgan olimlar yutuqlariga asoslangan, mualliflik nazariy-metodik ishlanmalari taklif etilgan, anchagina ishlar paydo bo'ldi. Kishining boshlang'ich tashqi qiyofasini, ko'milgan yerda libosning ayrim qismlari bo'lgani holda, rekonstruksiya qilish ishlari tartibi V.I. Sarianidi va S.A. Yatsenko ishlarida o'z aksini topgan.

Fiksatsiya metodlari variantlaridan biri V.I. Sarianidi tomonidan Shimoliy Afg'onistondagi Tillatepa maqbarasidagi qazishlar jarayonida qo'llangan¹¹. Gavda suyaklari, uning yonidan va ostidan, boshidan, oyog'idan joy olgan ko'pgina qadama bezaklarning qunt bilan chizib olingan xomaki tasviri eramizning I asrida yashagan ko'chmanchi zodagon dafn libosini rekonstruksiya qilishga yordam bergan. Maqbarada tuzilgan dala hujjatlariga asoslanib, S.A. Yatsenko metodik ma'nodagi libos kompleksi rekonstruksiyasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim

¹¹ Сарианиди В.И. Храм и некрополь Тилля-тепе. – М., 1989.

o'zgarishlar kiritdi. Bu ma'lumotlar uning «Костюм и покровы кочевой аристократии из некрополя Тиля-тепе (Афганистан)» kitobi¹² da e'lon qilingan.

Mato qoldiqlarini tavsiflash metodikasi qoidalari, ham shuningdek, undan qilingan buyumlar haqida bir qancha tadqiqotlar bor.

Matodan qilingan buyumlar ustida ishlash qoidalarini (o'rta asrlar rus maqbaralari misolida) O.V. Orfinskaya taklif etgan. Ular orasida muhimlari mato va bezaklar (dekor)ning joylashuvi fiksatsiyasi, shuningdek, tuproq-mato aralashmasini mato parchalari bilan, keyinchalik barcha qatlamlarini kamera sharoitida tahlil qilish uchun saqlab qolishdan iborat. Uchastkalarini monolit qilib olish, gipsdan qoliplar olish, qabr qatlamlari stratigrafiyasini qatlamma-qatlam chizmalar yordamida aniqlashtirish zaruratini yoqlaydigan S.A. Yatsenko ham xuddi shu fikrni ma'qullaydi. Uning mualliflik ishlanmasida kishi kiyimidagi qadama ziynatlar, marjonlar, munchoqlar, shuningdek, kashtado'zliklarning qoldiqlarini sinchiklab detallashtirishga alohida e'tibor beriladi.

Yuqorida berilgan libosning dekorativ elementlari bilan ishlashning metodik usullari Oltoy o'lkasida Xonqarin vodiysi pazzirik madaniyati qabristoni qazilmalarida amalda ishlatilgan. Ayol kishining 15-sonli qabrida tilla zardan qilingan applikatsiyali, to'lqinsimon, spiralsimon ornamentli va hayvonot shakli tushirilgan bosh kiyimning izlari aniqlangan.

Qadama bezaklar joylashgan yerini yo'qotib qo'ymaslik uchun yerning bosh suyagi joylashgan qismi va bosh kiyimning bezaklari joylashgan joy monolit (bir butun) qilib olindi. Dekor predmetlarining aniq fiksatsiyasi ko'mir-loy asosiga ega bo'lgan soch, kigiz, matodan qilingan cho'ziq parik (yasama soch) ko'rinishidagi buyum tashqi ko'rinishini tiklash imkonini berdi¹³.

Metodik planda, usiz arxeologik buyumni ishonchli tarzda rekonstruksiya qilib bo'lmaydigan muhim bir jihati ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishning asosiy vositasi tavsifdir. Libos elementlarining aniq tavsifga egaligi olingan ma'lumotlarni

¹² Яценко С.А. Костюм и покровы кочевой аристократии из некрополя Тиля-Тепе (Афганистан) // Ученые записки комиссии по изучению памятников цивилизаций древнего и средневекового Востока. – М., 1989.

¹³ Дашковский П.К., Усова И.А. Реконструкция женского головного убора из могильника пазырыкской культуры Ханкаринский дол // Социогенез в Северной Азии. – Иркутск, 2009.

idrok etish va yangi nazariy bosqichga ko'tarilish imkonini beradi. Oyoq kiyim predmetlarini, bezaklarni va dekorni tavsiflash sohasida ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilgan. Tadqiqotchilarning ishida asosiy prinsip bo'lib morfologiyani, klassifikatsiyani, tipologiyani va rekonstruksiyaning o'z ichiga olgan tizimli yondashuv xizmat qiladi. 1988 yilda "Qadimiyat morfologiyasi" seminarida Y.L. Hapova topilmalarni tizimli tavsiflash algoritmini taklif qildi. Bu taklif asosini morfologiya, texnologiya, material va vazifalar tashkil qilgan.

Arxeologik libosni o'rganishda yakuniy bosqich bo'lib predmetlarni obrazli idrok etadigan qilib tiklovchi grafik va vizual (hajmli) rekonstruksiya xizmat qiladi. Tashqi qiyofani ishonchli chiqishi uchun restavratsiya bilan bog'liq bo'lgan tayyorgarlik ishlarini olib borish kerak bo'ladi. Korroziya moddalarini, tuproqni, organikani bartaraf etishning ma'lum metodikasiga rioya etish buyumlarning dastlabki shaklini ochish, materialini aniqlash va ularni bezab turgan dekorni namoyon etishga yo'l ochadi.

Janubiy Sibir hududida joylashgan Arjan-2, Pazo'ro'k "elitniy" yodgorliklaridan chiqqan noyob topilmalar fanlararo metodlardan foydalanib sifatli tarzda amalga oshirilgan ilmiy restavratsiyaning yorqin misoli bo'la oladi.

Rassom-restavratorlar, olimlar, Davlat ermitajining dizaynerlarining hamjihatligida birinchi marta Arjan-2 qo'rg'oni zodagonlarining marosim liboslari rekonstruksiya amalga oshirildi. Libosning haqiqatga yaqin dekorini yaratish uchun kiyimga, bosh kiyimiga qadama bezaklarning nusxalari, shuningdek, belbog', bo'yin taqinchog'i, qurol modellari tayyorlandi; buyumga material, bichim va uslub tanlash, masalalari muhokama qilindi. Tuvaning arjan-mayemir zamonidagi nomadlarga oid erkaklar va ayollar libosining rekonstruksiya kompleksi bo'yicha qilingan samarali ishlarning natijasini Davlat Ermitajining doimiy ekspozitsiyasida ko'rish mumkin. Arjan-2 da topilgan liboslarning grafik rekonstruksiyasini ham D.V.Pozdnyakov amalga oshirgan. Uning tasvirlari Oltoy pazzirik madaniyati aholisining tashqi qiyofasini ham tasavvur qilish imkonini bergan.

Arjan-2 dagi dafn libosi qadama bezaklarini joylashtirilishining muqobil varianti “Qrim oroli” ilmiy-ta'mirlash laboratoriyasida faoliyat ko'rsatuvchi qozoq tadqiqotchilari tomonidan taklif etilgan. Libos dekorini tadqiq etish uchun mualliflar qo'shimcha manbalar sifatida fotomateriallardan, qo'rg'ondan topilgan predmatlarning tasvirlaridan, mato namunalarini tayyorlash texnologiyasi bo'yicha ishlardan foydalanganlar.

O'tkazilgan rekonstruksiya muvofiq liboslardagi asosiy dekorativ motiv bo'lib odamning elkasida panjalarini ko'kragigacha osiltirib yotgan holdagi yo'lbars tasviri xizmat qilishi aniqlandi. Shunday qilib, hozirgi paytga kelib, turli tarixiy-xronologik davrlar yuzasidan liboslar rekonstruksiya bo'yicha Osiyo dafnga oid yodgorliklarini o'rganish chog'ida qo'lga kiritilgan materiallar yig'ilib qoldi. Bronza davri skif-sak, xun-sarmat, turk zamonasidagi aholisining tashqi qiyofasini qayta yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Mudofaa qurollari (qurol-yarog', dubulg'a va h.k.) rekonstruksiya jarayonini o'rganish bu tadqiqotning doirasiga kiritilmadi. Shuni ham aytish kerakki, “arxeologik libos”ni o'rganishda muayyan metodikani qo'llash ya'ni, dala fiksatsiyasi, konservatsiya, restavratsiya kabi tartibga rioya qilish Osiyo hududida qadimgi zamon va O'rta asrlarda ro'y bergan tarixiy-madaniy jarayonlarning keyingi talqini uchun ularning rekonstruksiya to'g'ri olib borish, imkonini beradi.

XULOSA

Ko'ktepadagi "aslzoda"ning dromosli daxma tarxi va dafn buyumlari ma'lumotlar manbai sifatida ahamiyati faqat mazkur yodgorlikning o'rganish bilan chegaralanib qolmaydi. Samarqandagi Afrosiyob va Samarqand va Termiz o'rtasidagi yo'lda joylashgan Darbanddagi Temir Darvozada olib borilgan qazishmalarda olingan jami yangi ma'lumotlar O'rta Osiyoning ko'chmanchilar dunyosida mavjud bo'lgan etnik, madaniy va iqtisodiy kabi tarkibiy qismlar va uni o'troq olam bilan aloqalari munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga imkon beradi.

Libos bu – insoniyat madaniyatining eng e'tiborga molik elementlaridan biri. Aynan libos insonni hayvondan farqli ravishda ongli mavjudot ekanligini anglatib turadi. Libos tashqaridagi odamga ommaviy idrok etish uchun mo'ljallangan. Shuning uchun doimo tajribali kuzatuvchilar, olimlar tomonidan to'liq yoritishga harakat qilib kelingan. Libos qadimdan bir necha funksiyalarni bajarib kelgan: ijtimoiy (yoshi va jinsi, tabaqasi, etnik va diniy qarashlarini bildiruvchi), biologik (noqulay ob havo sharoitidan, jinsiy zo'ravonlikdan saqlovchi), mo'jizaviy (qadimdan turli balo qazolardan, ko'zga ko'rinmas yovuz kuchlardan asrovchi) va hokazo.

Bitiruv malakaviy ishim uchun tanlab olingan obraz Tillatepa yodgorligidan topilgan va boshqa ob'ektlarga qaraganda ancha yaxshi saqlangan.

Libos loyihasini qayta tiklash ishlarini S.A.Yatsenko bilan suxbat natijalari o'laroq, qayta tiklashdan avval, boshqa xalqlar liboslarining ob'ektga aynan o'xshash tomonlari o'rganilib chiqildi. Yurtimiz muzeylaridagi libos matolari bilan yaqindan tanishib chiqdim. Men tanlagan ob'ektning mato qismi saqlanib qolmagani uchun uni ashyoda tiklash jarayoni ancha qiyin edi. Shu ababli qadimgi davrga tegishli mato topilmalari namunalari, olimlarning ilmiy qarashlari, ma'lumotlari hamda S.A.Yatsenkoning maslahatlari asosida qayta tiklashga muvaffaq bo'ldim.

Libos – oltinchi qabrdan topilgan, shag'zodaning eng kichik xotini, Baqtriyada yagona jangovor salohiyatga ega ayolga tegishli. Ko'krak qismida uzun

libos va ko'ylakning bir-birining ustiga chiqqan uch qatlam yoqa qoldiqlari aniqlangan. Yuqori yoqasining ziynatlarga boy dekor qismi, garchi o'ng tomoni anchagina uringanligiga qaramay, eng qiziqarli nuqtasidir: uning yopishtirma cho'ntaklardan qolgan izlar bo'lishi ham ehtimoldan holi emas; oldi va orqasidan bezatilgan dabdabali yeng manjeti ham ushbu ust kiyimga taalluqli ekani ko'rinib turibdi. Oltin toj juda kuchli taassurot uyg'otadi. Shu topilma sabab bo'lib E.E. Kuzmina va V.I. Sarianidi vafot etgan shaxsni ayollarning qadrlisi – “malika” bo'lishi mumkin deb taxmin qilishdi (Kuzmina, Sarianidi 1982, – B.24). Ammo afsuski, barcha eroniyzabon malikalar ham toj kayib yurishgan degan fikr fakt bilan tasdiqlanmagan; masalan, Chertomlo'k skif qo'rg'onining (mil.avv. IV asr.) markaziy xonasidagi malikalarning ikkala bosh kiyimi ham yuqoriga qarab kengayib borgan silindr shaklida bo'lgan. Marhumaning o'ng yelkasida trapetsiyasimon so'mkacha yotardi; uning ostida va o'ng yelkasida yirik tilla disklar uyumi topildi. Ular ehtimol marosim sharfining bezaklari bo'lsa kerak. Oyoq kiyimlar boshqa guruh 1 qabrlarida bo'lganidek, tagcharmiga tikilgan choki bo'ylab bezatilgan. Qo'llarida boshmaldoqli qo'lqop qoldiqlari saqlanib qolgan. Ular parcha va yoqut bilan bezatilgan. (bu albatta barcha barmoqlar alohida kirib turadigan qo'lqop emasligi undagi barmoqlarga ko'ndalangiga qadalgan ziynatlardan ham ko'rinib turibdi). Ranglar gammasini libosning saqlanib qolgan katta qismidagina ko'rishimiz mumkin, bular Xolchayon va Dalvarzintepadagi devoriy surat va haykallarda bir muncha butun saqlangan. Shulardan kelib chiqib eng sevimli ranglar uyg'unligi oq va qizil bo'lgan deyishimiz mumkin.

Ayollar kiyimida ko'pincha oq rangni (bir vaqtning o'zida ichki ko'ylak oq, ustkisi qizil, ba'zida ustki libos qizil rangda bo'lgan) yoki yashil rangni uchratishimiz mumkin. Ustki kiyim oq rangda ((qora va qizil gorizontali yo'l-yo'lli va chetlarida spiralsimon yoki doirasimon naqshli) (Пугаченкова 1971, c. 30, 49–51, 56–58, 64; РТВеладзе 1978, c. 81–82). Ko'rinib turibdiki bir xil rangli chetida boshqa rangdan yo'l yo'l izli liboslarni afzal ko'rishgan. Aynan shu faktlardan kelib chiqqan holda rekonstruksiya uchun oq (ichki ko'ylak va ishton) va qizil (ustki libos) ranglarni tanlab oldim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy adabiyotlar

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992 y. – 80 b.
- 1.2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom. T.: O'zbekiston, 1997 y. – 196 b.
- 1.3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekiston 1998 y. – 220 b.
- 1.4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: O'zbekiston, 1998 y. – 32 b.

2. Asosiy adabiyotlar

- 2.1. Яценко С.А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы). М., 2006.
- 2.2. Яценко С.А. О точной дате и обстоятельствах прибытия посольств, изображенных на росписях Афрасиаба. // "Узбекистан - вклад в цивилизацию. Бухара и мировая культура". (Тезисы). Вып. 3, часть 1. Бухара, 1995.
- 2.3. Яценко С.А. Раздел 3 «Костюм» // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье (Том IV). Архитектура. Искусство. Костюм. (Отв. ред. Б.А. Литвинский). М., 2000.
- 2.4. Культура и искусство древнего Узбекистана. Каталог выставки. Т.2. М., 1991.
- 2.5. Кирянов А.В. Реставрация археологических материалов. М., 1960.
- 2.6. Мифы народов мира. Энциклопедия, т.2. М., 1992.
- 2.7. Никитин М.А. Химия в реставрации. Л., 1990.
- 2.8. Ремпель Л. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. Т., 1987.
- 2.9. Пугаченкова П., Ремпель Л. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. Т., 1965.
- 2.10. Пугаченкова Г., Ремпель Л. Очерки искусства Средней Азии. М., 1982.
- 2.11. Руднева И.В., Образцова М.В. Основы консервации и реставрации предметов искусства и культурн. -СПб., 2008. 140 с.
- 2.12. Сальникова Р.М. Становление научно-исследовательского отдела консервации и реставрации во ВГБИЛ // ТПС. СПб., 2000. Вып. 20. С. 19-24.
- 2.13. Стигайло И.Н., Романова Л.В. Влияние температурно-влажностного режима на микробиологическую загрязненность воздуха помещений // ТПС. СПб., 1995. Вып. 17. С. 17-22.
- 2.14. Умняков И.И. Архитектурные памятники Средней Азии (Исследование. Ремонт, Реставрация 1920-1928г). -Т.: 1929.
- 2.15. Haqqulov A.A. Tarixiy yodgorliklarni restavratsiya. T.: O'qituvchi, 1983 y. – 123 b.
- 2.16. Haqqulov A.A. Restavratsiya san'ati. T.: Mehnat, 1991 y. – 200 b.
- 2.17. Шестаков В. Особенности реставрации культурных ценностей // Вопросы культурологии. -М., 2008, №11. С.57-64.

2.18. Экологические проблемм сохранения музейного фонда / Г. А. Зайцева, Ю.К., Фомичев, Л.М. Колесникова // ТПС. СПб., 1998. Выш. 19.С. 47-53.

3. Jurnal maqolalari

3.1. Яценко С.А. Древние тюрки: костюм на разноцветных изображениях (начало) yatsenko s.a. ancient turks: costume in a color images

3.2. Консервация естественно-исторических образцов// Ежеквартальный журнал ЮНЕСКО «Museum». - №150. - 1986.

3.3. Консервация с помощью гамма-облучения // Ежеквартальный журнал ЮНЕСКО «Museum». - №151. - 1986.

3.4. Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920-1990).// АСУ ,1990, № 8.

3.5. Кулемзин А.М. Охрана памятников как историко-культурное явление. - Кемерово: Изд-во облИУУ, 2001.

3.6. Пипдик И. Древесиноведения на службе консервации // Мир музея. - Москва, 2009. - №9 (265).

3.6. Abdurazzoqov A.A. O'zbekistonda mato topilmalari va ularni ta'mirlash usullari. Ma'ruza matni.

4. Internet saytlari.

4.1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ozbek_milliy_kiyimlari.

4.2. <http://tarix.uz/milliy-ananalar/milliy-urf-odatlar/milliy-liboslari>.

4.3. http://fikir.uz/blog/Dunyo_xalqlari_urf-odatlari_dasturi/o_zbek-milliy_liboslar.html

4.4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_Baqtriya

4.5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yunon-Baqtriya_podsholigi.

4.6. <http://www.mfa.uz/uz/uzbekistan/263/>


4.7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tillatapa>

4.8. <http://kronk.spb.ru/library/sarianidi-vi-1989.htm>.


4.9. <http://www.mysterylife.ru/arii3>.

4.10. <http://oko-planet.su/history/historydiscussions/56514-zoloto-baktrii.html>.

ILLYUSTRATSIAYALAR




1.1-rasm. So'g'diyonaning er. av. IV asrdagi holati haritasi



1.2 a-rasm. Ko‘ktepa shahristonining sxematik tarxi

- A: Ilk temir davriga oid qishloq turar joyi («Ko‘ktepa I» davri).**
- B: Muqaddas hudud («Ko‘ktepa II»).**
- C: Saroy hududi («Ko‘ktepa II-III»).**
- D: G‘arbiy muqaddas platforma («Ko‘ktepa III»).**
- E: Sharqiy platforma («Ko‘ktepa III»).**
- F: Ellin davriga oid devorning bosh darvozalari («Ko‘ktepa IV»).**
- G: Ellin davriga oid qishloq turar joyi («Ko‘ktepa IV»).**
- H: Ko‘chmanchilar qabristonlari hududi («Ko‘ktepa V») va «aslzoda»larning dromosli qabristonlari («Ko‘ktepa VI»).**



**1.2 b-rasm. Sharqiy platforma va dromosli
“aslzoda” qabri tarxi va qirqimi.**



1



3




2




4

1.3-rasm. 1) Ko'ktepa sitadeli, 2) Qazilma ko'rinishi, 3) Qo'rg'on va dromosning talonchilik cahun kavlangani, 4) Skeletni qazishmalari



1.4-rasm. “Aslzoda” dromosli daxmasining tarxi:


- 1) dromos, 2) daxmaning og’zi yopilgan eshigi,
 3) “Π” shaklidagi yuqori zinapoya, 4) qadimgi talonchilik qazilmasi,
 5) qabr, 6) g’arbiy yon tokcha, 7) sharqiy yon tokcha,
 8) dromosli qabr yonidagi xom g’ishtdan taxlangan yo’lak.**



1.5-rasm. Qabr tarxi va marxum libosining rekonstruksiyasi



1.6-rasm. Qabrdagi topilmalar



1.7-rasm. 1) Skeletning yuqori qismi, 2) Xitoy oynasi (ta'mirlashdan keyingi holati), 3) Tilla brakteatlar, 4) shisha munchoqlar, 5) oltin va feruza toshlar bilan qadalgan plastinalar



